

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Xushvaqtova Barnoning

“5220100 - Filologiya” ta'lim yo'nalishi bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

“ Navoiy soqiynomalari poetikasi”

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: f.f.d. N. Shodmonov

Himoyaga tavsiya etilsin”

O'zbek filologiyasi fakulteti

dekani _____ dots. I.Xudoynazarov

“ ____ ” _____ 2012-yil

MUNDARIJA:

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI.....	
Birinchi bob. NAVOIY IJODIDA SOQIYNOMALARNING O‘RNI	
1.1. Soqiynomalarning janr sifatida shakllanishi.....	
1.2. Navoiy ijodida soqiynoma janriga murojaatning sabablari.....	
Ikkinchi bob. NAVOIY SOQIYNOMALARINING MAVZUIY TASNIFI	
VA BADIY XUSUSIYATLARI	
2.1. Navoiy soqiynomasining mavzuiy tasnifi.....	
2.2. Soqiynomaning badiiy xususiyatlari.....	
UMUMIY XULOSALAR.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	

KIRISH. ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek adabiyotining hozirgi taraqqiyot bosqichida mumtoz adabiy janrlarning bir necha turi iste‘moldan chiqdi, ba’zilari “yangi” shakllarda saqlanib turibdi. Onda-sondagina g‘azal va muxammas kabi janrlarga murojaat qilinmoqda. Ayrim ijodkorlarning ruboiy, tuyuq sifatida taqdim etayotgan she’rlari ham bu janrlarning mumtoz adabiyotshunosligimizda belgilab qo‘yilgan talablariga mos emas. Mustazod, tarje‘band, tarkibband, muammo kabi bir qadar chuqurroq tafakkur talab qiladigan janrlardan amalda foydalanilmayapti. Soqiy nomalar ham xuddi shunday hozirgi davrda amalda bo‘lmagan janrlar qatoriga kiradi. Shuning uchun ham adabiyotimiz tarixida keng istifodada bo‘lgan bu janr hozirgi o‘quvchilar uchun ma’lum darajada tushunarsiz adabiy hodisalar qatoriga qo‘shilmoqda. Lekin adabiyotshunoslik ilmi mutaxassislari bunday janrlarning imkoniyatlarini, ularning taraqqiyot bosqichlarida erishilgan yutuqlarni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari shart. Chunki ularda, birinchidan, xalqimizning ma’naviy taraqqiyotida, milliy badiiy tafakkuri tarzida yuz bergan o‘zgarishlar aks etadi. Ikkinchidan, milliy adabiyot taraqqiyotini bashoratlashda (prognoz qilishda), yangi ijodiy uslublar va yo‘llarini belgilashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Alal oqibat bunday bilimlar adabiyotimizning o‘ziga xosligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Binobarin, janrlar tarixining o‘zini adabiyotimiz tarixida alohida sahifani tashkil qiladigan boy meros sifatida baholash o‘rinli deb hisoblaymiz. Ayniqsa, ulug‘ Alisher Navoiy tomonidan qo‘llangan janrlarning o‘ziga xos sirlari mavjudki, ularning ko‘pchiligi hamon to‘la ma’noda o‘z bahosini olmagan. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning «Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz»¹, degan so‘zlari bu sohadagi ishlarning dasturilamali bo‘la oladi.

Demak, hazrat Navoiy adabiy merosini, uning olmos qirralarini har tomonlama o‘rganish bugungi ilmiy tadqiqotlar jarayonida o‘ziga xos o‘ringa egadir. Shuningdek, jahon adabiyotshunosligida ayrim olingan janrlar, ularning poetikasiga doir juda ko‘p tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay o‘zbek adabiyotshunosligida hatto Alisher Navoiy ijod qilgan adabiy janrlar ham atroflicha maxsus tadqiq etilmagan. Holbuki, ulug‘ shoirning janrlarga munosabati ham uning adabiy-estetik printsiplarini aniqlashda o‘z ahamiyatiga ega.

Alisher Navoiyning har bir devoniga kiritilgan tarkibband, tarje‘band kabi janrlar, ularning adabiyotimiz tarixidagi o‘rni kabi ilmiy o‘rganilmagan mavzular qatorida soqiy nomalarning mavzuiy va poetik xususiyatlari, shuningdek, bu janrning tasnifi va tarixi ham alohida tadqiq etilmagan. Bunday muammolar mavjudligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 48.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Alisher Navoiy soqiynomalar adabiyotshunosligimizda A.Hayitmetov² va Y.Ishoqov³lar tomonidagina birmuncha o‘rganilgan. Bu ikki olim ham soqiynomalar haqida jiddiy va e‘tiborli ma‘lumotlarni taqdim etganlar. Lekin ular ko‘proq Navoiy soqiynomalarining biografik xususiyatlariga e‘tibor qaratib, uning ba‘zi poetik xususiyatlarini tavsiflasa-da, bu janr bilan bog‘liq umumiy qonuniyatlar, o‘zbek adabiyotida bu janrning shakllanishi va taraqqiyoti, shuningdek, uning iste‘mol doirasi va davri haqida batafsil ma‘lumot berishni maqsad qilib olmaydi.

Umuman, soqiynomalar haqida tadqiqotlar nihoyat darajada kam. Ulardan faqat Hoji Xalifaning (18-asr) “Kashfu-z-zunun”, Mullo Abdunabi Faxruzzamon Qazviniyning 17-asrda tuzilgan “Tazkirai mayxona” to‘plami va 1936 yilda Lohurda professor Muhammad Shafe‘ tomonidan bu to‘plam ustida olib borilgan kichik tadqiqotni ta‘kidlab ko‘rsatish mumkin. Soqiynomalar haqida prof. Y.E.Bertels⁴, Yan Ripka⁵ kabi olimlarning tadqiqotlarida ham fikrlar bildirilgan. Lekin ularning fikrlari asl mohiyatni ochib bera olmasligi o‘zbek olimlari tomonidan ta‘kidlangan. Shuningdek, ba‘zi lug‘atlarda ham soqiynomalarga berilgan qisqa ta‘riflar mavjud.

Bunday holat malakaviy ishning birinchi marta amalga oshirilgan tadqiqot sifatidagi ahamiyatini belgilaydi.

Ishning maqsad va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi Navoiy soqiynomalarining Sharq adabiyotida bu janr taraqqiyoti jarayonidagi o‘rnini aniqlash va bu janrning o‘zbek adabiyotida amalda bo‘lish davri hamda o‘ynagan rolini baholashdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo qiladi:

- Navoiy soqiynomalarining janriy belgilarini kuzatish;
- Navoiy soqiynomalarining mavzuiy munosabatlarini aniqlash;
- Sharq adabiyotida soqiynomalarning tutgan o‘rni va qiymatini belgilash;
- o‘zbek adabiyotida soqiynoma janrida ijod qilgan shoirlar tabaqasiga aniqlik kiritish;
- Navoiy soqiynomalarining badiiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali bu janrga xos umumiy belgilarni aniqlash;
- muayyan ijodkor badiiy uslubi tamoyillarini belgilashda ma‘lum janr ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqot ob‘ekti. Tadqiqot ob‘ekti Alisher Navoiy, Shermuhammad Munis, Muhammad Rizo Ogahiyning nashr etilgan asarlari va ular asosida amalga oshirilgan tadqiqot ishlaridan iborat.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

² Хайитметов А. Навоий лирикаси. Т. “Фан”, 1960. – Б. 41 – 42.

³ Ишхоқов Ё. Навоий поэтикаси. Т. “Фан”, 1983. – Б. 88 – 89.

⁴ Бертельс Е.Э. Низами и Фуззули. М. 1962. С. 252–253, 312; Навои и Джами. М. 1965. С. 88.

⁵ Рипка, Ян. История персидской и таджикской литературы. М. 1970. С. 252.

- Soqiynomalar umumiy planda birinchi marta tadqiq ob'ekti sifatida tahlilga tortildi;
- muayyan ijodkor badiiy uslubini baholash uning maxsus ijodiy tamoyillarini aniqlashda soqiynomalarning o'rni belgilab berildi;
- Navoiy soqiynomalarining Sharq adabiyotidagi o'rniga baho berilib, ularning o'zbek shoirlari ijodiga ta'siri doirasi aniqlandi.
- soqiynomalarning o'ziga xos janriy belgilari to'g'risidagi nazariy ta'riflar tahlil qilinib, ularning printsiptial xususiyatlariga aniqlik kiritildi;
- soqiynoma janrining poetik belgilari ilmiy tavsiflandi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ish o'zbek adabiyoti tarixida ijod etgan adiblar faoliyatida janrlarga munosabat masalasiini yoritish va ularning ijodiy imkoniyatlarini baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar uchun ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ishdan talaba va o'quvchilar Navoiy va boshqa mumtoz adiblar soqiynomalarini o'qib o'zlashtirishlarida, shuningdek o'z badiiy-estetik tafakkurlarini o'stirishda yordamchi qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin. Bu esa uning amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi uning umumiy tavsifidan iborat kirish qismi, har biri ikki faslni o'z ichiga olgan ikki bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismi bilan 59 betni tashkil qiladi.

Birinchi bob. NAVOIY IJODIDA SOQIYNOMALARNING O‘RNI

1.1. Soqiynomaning janr sifatida shakllanishi

Janrlar badiiy tafakkurning konkret namoyon bo‘lish shakllaridan iborat bo‘lib, ularda adabiyot taraqqiyotining asosiy qonuniyatlari o‘zining bevosita ifodasini topadi. Har bir janrning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va nihoyat tanazzuli tarixiy-adabiy muhit bilan qat’iy bog‘liq bo‘lganidek, har bir adabiy jarayonga xos muhim tendentsiyalar ham o‘z ifodasini konkret janrlar shaklidagina topa oladi. Janrlarda yagona protsessning turli elementlari o‘ziga xos shaklda paydo bo‘ladi.

Har bir janr o‘zining taraqqiyoti natijasida shakllangan qonuniyatlariga ega bo‘lib, o‘ziga xos poetik strukturasi bilan ajralib turadi.

Avvalo, har bir janrning (uning doirasiga kirgan asarlar qanchalik rang-barang bo‘lmasin) o‘z ta’sir ob’ekti – o‘z “materiali” bo‘lib, u har bir janrning ichki imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘langan. G‘azaldagi mazmunni, maqsadni ruboiy shaklida ifodalab bo‘lmaganidek, qasidaning mazmunini qit’a yoki boshqa biror janr doirasida tasavvur qilish ham qiyin.

Ikkinchidan, ijodkorning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi har bir janrda janr qonuniyatlari bilan bog‘liq holda, uning imkoniyatlari darajasida o‘z ifodasini topadi. Uchinchidan, ijodkorning shaxsi, uning o‘z obrazi har bir janrda janrning qat’iy qonuniyatlari doirasida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek klassik lirikasida individuallashtirish alomatlari har bir konkret asarda emas, balki, saosan, janrlar doirasida ko‘rinadi. Masalan, g‘azal, qasida, soqiynoma, muxammaslarda muallif obrazi, uning nomi ko‘rsatilgan holda, ma’lum darajada konkretroq ko‘rinadi. Ruboiy va qit’ada esa u umumlashgan xarakterga ega.

To‘rtinchidan, har bir janr uning o‘zi uchun xarakterli bo‘lgan tasvir printsiplari va shunga mos tasvir vositalariga ega (masalan, g‘azal, qasida, qit’ani eslash o‘rinli).

Har bir ijodkor ijodiga xos individual jihatlar ham har bir janrning qat’iy talablari – poetik kanon bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi.

Xullas, har bir janr uchun voqea va inson kechinmalarining muayyan tomonlarini o‘ziga xos yo‘sinda ifodalash mansub. Shu jihatdan, janrlar mavjud adabiy normaning, badiiy mezon (kanon)ning bevosita ifodasi hamdir. Lekin, yuzaki qaraganda, o‘zgarmas va stabildek, ko‘ringan janrning o‘z ichida ham badiiy tafakkurga xos xarakterli holat – o‘z-o‘zini inkor vositasida traditsion tasavvurlar doirasidan chiqishga intilish – ichki evolyutsiya davom etadi va

uzoq jarayon tarzidagi ana shu miqdor o'zgarishi ma'lum bir shart-sharoitlar ta'sirida sifat sho'garishiga o'tishi mumkin.

Janr – bu tarixiy-konkret kategoriya. “Lekin muayyan davr adabiyoti strukturasi janrning roli qanchalik muhim bo'lmasin, ularning shakllanishi va o'zgarishi hamma vaqt u yoki bu darajada individual uslublarning taraqqiyoti bilan aloqador... Alohida so'z san'atkorlarining harakat va intilishlarsiz, umuman, adabiyotning jonlanishi mumkin bo'lmaganidek, janrlarning yangi belgilari paydo bo'lishi ham mumkin emas”⁶.

Darvoqe, o'zbek poeziyasi tarixida lirik janrlar rivojining yangi va yuqori bosqichga ko'tarishi bevosita Navoiy ijodiyoti bilan bog'liq.

Navoiy ijodiy faoliyati san'at va adabiyot sohasida o'ziga xos an'ana va qoida-qonunlar hukmronlik qilgan O'rta asr sharoitiga to'g'ri keldi. “O'rta asr san'ati uchun esa, xususan, kanoniylikka moyillik, ya'ni san'atning o'zi va shuningdek, ijodiy protsessga xos printsiplar, qoida va usullarning shartli va ayni zamonda, barqaror sistemasini yaratishga intilish tendentsiyasi xarakterli. O'rta asr madaniyatining barcha eng oliy namunalari kamon mavjud”.

Bu hodisa O'rta asr madaniyatining muhim tarmog'i bo'lmish badiiy adabiyot, jumladan, Navoiy davri adabiyoti uchun ham taalluqli. Chunki “O'rta asrlarda har bir xalqda o'zining badiiy o'lchovlari shakllangan”.

Navoiy o'z ijodiy faoliyatini boshlagan paytda o'zbek adabiyotida lirikaning g'azal, qasida, masnaviy, tuyuq, fard kabi janrlarida muayyan an'analar shakllanib yetgan va ana shu traditsiyalar kamon darajasiga ko'tarilgan edi. Qit'a (mustaqil holda), ruboiy kabi janrlar esa shakllanish bosqichida bo'lgan.

Keyingi paytda Hindistondan topilib, nashr etilgan Hofiz Xorazmiy devonida muxammas, mustazod, tarkibband, tarjiband, qit'a, ruboiy kabi janr namunalari bo'lsa ham, ba'zi olimlarimizning fikricha, Navoiy bu shoir ijodidan bexabar bo'lgan.

Navoiy o'z oldiga o'zbek poeziyasini janrlar jihatidan mukammal bir holga keltirishni maqsad qilib qo'ygan ekan, u avvalo, turkiy tildagi adabiyotning mavjud tajribalariga, qolaversa, fors-tojik poeziyasining boy traditsiyalariga suyanib ish ko'rdi. Lekin boy adabiy an'analar, yuksak poeziya namunalari Lekin boy adabiy an'analar, yuksak poeziya namunalari Navoiy uchun faqat ideal bir model emas, balki ijodiy musobaqa va munozara ob'ekti bo'lgan.

Shuning uchun ham Navoiy janrlar borasidagi ijodiy izlanishlari natijasiga uning fors-tojik va turkiy she'riyatda mavjud adabiy kanonga yohud badiiy an'analarga (agar kamon darajasiga ko'tarilmagan bo'lsa) qanday munosabatda bo'lishiga bog'liq edi.

Navoiyning janrning barqaror qonuniyatlariga munosabatini aniqlashda, shoir asarlari bilan bir qatorda, uning o'z izohlari ham muhim ahamiyatga ega. Agar shoirning izohlari uning u

⁶ Храпченко М.Б. Художественное творчество. Действительность, человек. М., 1976, с.349.

yoki bu masalaga qarashi, ijodiy niyatini anglatga, asarlarining o‘zi ana shu niyatning, nazariy konsepsiyaning real tatbiqi qay darajada amalga oshganligini ochiq namoyish etadi.

Navoiyning “Badoeu-l-bidoya” debochasidagi to‘rtta izohidan ikkitasi bevosita janr xarakteriga daxldor. U yozadi: “Yana bir bukim, go‘yo ba‘zi el ash‘or tahsilidin va davovin takmilidin g‘araz majoziy husn tavsifi va maqsudi zohiriy xattu hol ta‘rifidan o‘zga nima anglamaydurlar. Devon topilg‘aykim, anda ma‘rifatomuz bir g‘azal torilmag‘aykim, anda mav‘izatangez bir bayt bo‘lmag‘ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoe‘ mashaqqat tortulg‘on bo‘lg‘oy. Ul jihattin bul devonda hamd va na‘t va mav‘izadan boshqa har sho‘rangez g‘azaldinkim, istimoj mahvashlarg‘a mujibi sarkashlik va g‘amkashlarg‘a mujibi mushavvashliq bo‘lg‘ay, biror-ikkiror nasihatoro va mav‘izatoso bayt irkitob qilindikim, alarning lam‘ai ruxsori iffat burqa‘idin ko‘p tashqari lome‘ bo‘lmag‘ay, to bularning vujudi xirmoni ul barq ehroqidin bilkul zoe‘ bo‘lmag‘ay, yo‘qkim, bu g‘azallar g‘izolalari jilvagarlik soz, balki pardadarlik og‘oz qilsalar, bu baytlar nasihatsoz voizalari va mav‘izapardoz nosihlari mone‘ bo‘lg‘aylar”⁷.

Demak, Navoiy nuqtai nazaricha, har bir g‘azal (umuman, har qanday she‘r ham) mazmunan tugal va yaxlit bo‘lib, uning strukturasi ham qat‘iy mantiq asosida izchil qurilgan bo‘lishi kerak. Navoiyning bu mulohazasi, shubhasiz, uning go‘zallik va garmoniya borasidagi estetik printsiplari bilan bevosita bog‘liq. Shuni ta‘kidlash kerakki, Navoiyning mazkur mulohazasi Aristotelning fabulaning organik yaxlitligi haqidagi nuqtai nazarini eslatadi. Aristotel organik yaxlitlikni go‘zallikning muhim belgisi hisoblaydi. Uningcha, voqeaning talqini bo‘lmish fabula “yaxlit bir voqeaning ifodasi bo‘lishi kerak va voqea bo‘laklari shunday tuzilishi kerakki, biror bo‘lakni almashtirgan yoki olib qo‘ygan taqdirda, yaxlit butun o‘zgarsin va harakatga kelsin. Zotan, boru yo‘qligi sezilmaydigan bo‘lak butunning organik qismi emas”⁸.

Navoiyning mazkur mulohazalari u lirik janrlarning mohiyati, poetikasi borasidagi mavjud qoida va an‘analardan qanoat hosil qilmaganligi, shu sohada kanon darajasiga yetib qolgan traditsiyalarga nisbatan tanqidiy yondashganligidan dalolat qiladi.

Navoiy o‘z ijodini boshlagan davrda o‘zbek g‘azalchiligi ancha boy tajriba va o‘ziga xos an‘analarga ega edi. Binobarin, bir qator lirik janrlarning o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi bevosita Navoiy nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, ba‘zilarining keng ko‘lamdagi rivoji uning ijodiy faoliyati bilan izohlanadi.

Lekin o‘zbek adabiyoti uchun “yangi” bo‘lgan bir qator janrlar forsiy adabiyotda mavjud bo‘lib, o‘zining qat‘iy qanotiga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham shuning uchun ham Navoiy devonidagi bunday janr namunalariga baho berganda biz forsiy tildagi janr kanonlari nuqtai

⁷ Навоий, Алишер. Фавойиду-л-кибар. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, IV ж. – Тошкент: Ф.Фуллом, 2011. – Б. 769.

⁸ Аристотел. Об искусстве поэзии. – Москва: Наука. 1957. – С. 66.

nazaridan mulohaza yuritishimizga to‘g‘ri keladi. Boshqa bir qator janrlar borasida esa tureiy poeziyadagi an’analar va ularga munosabat masalasi shoir mahoratining o‘ziga xos qirralarini ochib berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ayrim janrlar poetikasiga xos muhim xususiyatlar tahlili asosida ana shu masalaga ma’lum darajada aniqlik kiritish mumkin.

Ma’lumki, XV asr va undan keyingi davrlar o‘zbek lirik shoirlari poeziyasida bo‘lganidek, o‘n oltita janrdan tashkil topgan Navoiy lirikasida g‘azal yetakchi o‘rin tutadi⁹. Navoiy g‘azallari faqat son jihatidan emas, balki g‘oyaviy-badiiy salmog‘i jihatidan ham o‘rta asr g‘azalchiligining yuksak namunalari bo‘lib qoldi.

O‘zbek adabiyotidagi mavjud g‘azal namunalari XIV asrning boshlariga mansub.

Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy” asari tarkibidagi “Bahoriyot” she’ri tavsifiy xarakterdagi g‘azalning tipik namunasi hisoblanadi. Bundan tashqari, shu asar tarkibida yana 4 ta 7 baytli, 1 ta 10 baytli va 1 ta 14 baytli g‘azal shaklidagi she’rlar mavjud. Ularning aksariyati syujetli bo‘lib, ayrimlarida qasida xarakteri ko‘zga tashlanadi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si tarkibida ham o‘zbekcha va forscha beshta g‘azal mavjud.

O‘sha asrning ikkinchi yarmida esa o‘zbek g‘azalchiligi doirasi yana ham kengayganligini ko‘ramiz.

XU asrning boshlariga kelib, Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy va Gadoyilarning ko‘plab g‘azallari o‘zbek tilidagi g‘azalning yetuk namunasi sifatida keng shuhrat qozondi. Keyingi paytlarda topilgan Hofiz Xorazmiy devoni o‘zbek g‘azalchiligi borasida ancha samarali ijod qilinganligidan dalolat beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilidagi g‘azal namunalari XIV asr boshidagi yodgorliklarda uchrar ekan, bu o‘zbek g‘azalnavisligi ana shu davrdan boshlangan deb xulosa chiqarish uchun asos bo‘lmaydi. Chunki X – XIII asrga mansub ko‘pgina asarlar bizning davrimizga qadar yetib kelmagan yoki hozircha topilgan emas. Buning ustiga XIV asr g‘azallarining badiiy saviyasi ham o‘zbek g‘azalnavisligida ancha boy tajriba to‘planganligidan guvohlik beradi.

XV asr boshlarida esa o‘zbek g‘azali o‘zining muayyan uslubi, tematikasi va boy tasviri vositalariga ega bo‘lgan yetakchi janr sifatida mashhur bo‘ldi. Hatto ko‘pgina o‘zbek shoirlari o‘z devonlarini ham tuzganlar.

Alisher Navoiy o‘z ona tilida g‘azallar yaratishga kirishar ekan, bu sohada vujudga kelgan bir necha asrli boy tajribalarga suyandi. Shuning uchun ham u o‘ziga qadar o‘zbek tilida ijod qilgan adabiyot namoyondalarini ehtirom bilan tilga oladi, ayni zamonda ular ijodiga

⁹ “Хазойину-л-маоний” даги 16 жанрга мансуб 3120 та шеърнинг 2600 таси ғазаллардан иборат.

talabchanlik bilan yoshdashib, xolisona baho beradi; ularning o‘zbek tili va milliy adabiyotni rivojlantirishda o‘ynagan roli va mavqeni belgilashga harakat qiladi¹⁰.

Alisher Navoiyning buyuk xizmati shundaki, u o‘zbek lirikasini, jumladan, g‘azal janri barobarida soqiynomani ham yuqori bosqichga ko‘tarish uchun kurash jarayonida faqat milliy an‘nalar bilangina qanoatlanib qolmay, ko‘p asrlik tajribaga ega bo‘lgan fors she‘riyatining katta yutuqlarini ham qunt bilan o‘rganib, uning ilg‘or traditsiyalarini o‘zbek she‘riyati taraqqiyotiga xizmat qildirdi.

Navoiy she‘riyatining yuzaga kelishida ana shunday an‘nalarning ma‘lum rol o‘ynaganligi shubhasiz, albatta. Lekin uning keyingi taraqqiyoti novator shoirning yuksak mahorati va o‘ziga xos estetik printsiplari bilan bevosita bog‘langan.

XV asr ikkinchi yarmidagi madaniy muhit va adabiy jarayonning yuksak mahsuli hisoblangan Navoiy she‘riyati mavjud an‘nalarga faol munosabatda bo‘lgan original daho qudratining yorqin timsoli bo‘la oladi. Shoir she‘riyati poetikasiga xos eng muhim jihatlar tahlili asosida ana shu xulosani mahlum darajada konkretlashtirish mumkin.

Navoiyning “Badoeu-l-bidoya” debochasida devon tuzish an‘nalari haqida bildirgan tanqidiy mulohazalari uning g‘azal sohasidagi novatorligining asosiy qirralarini to‘g‘ri belgilashda muhim o‘rin tutadi. Mavjud she‘riy devonlar mohiyatan, asosan, ishqiy kechinmalar tasviri hamda ma‘shuqa husnining ta‘rifidan iborat. Ularda ma‘rifatomuz va mav‘izatangiz she‘rlar uchramaydi. Shuning uchun ham, uning o‘zi tomonidan tuzilgan birinchi devoniga “biror-ikkiror nasihatoro va mav‘izatozo bayt irkitob qilindi”. Bu fikr devon strukturasi, barcha janrlar, jumladan, g‘azal mohiyati uchun ham taalluqli (chunki g‘azal devonda yetakchi o‘rin tutadi). Lekin “nasihatoro va mav‘izatoro” atamasini tor ma‘noda oddiy didaktika deb tushunmaslik kerak. Shoirning “nasihat” va hikmatlari ancha keng ma‘noda bo‘lib, ular o‘z doirasiga oddiy gadodan tortib oliy hukmdorga qadar bo‘lgan turli tabaqa uchun dahldor mulohazalarni qamrab olgan. Shu ma‘noda Navoiyning “hikmat va mav‘izalar”i qator falsafiy-didaktik, ijtimoiy-siyosiy masalalardan iborat. Binobarin, Navoiy g‘azaliyoti, birinchi navbatda, o‘z tematikasining nihoyatda keng qamrovliligi va g‘oyaviy olamining boyligi bilan xarakterlanadi.

O‘zbek g‘azalida birinchi marta, ishqiy tematikadan tashqari, falsafiy didaktik va sotsial masalalar ham muhim mavqeni egallaydi, lirik qahramon esa faqatgina oshiq sifatida emas, balki falsafiy, sotsial qiyofaga ega bo‘lgan mukammal tip sifatida namoyon bo‘ladi.

Navoiy g‘azaliyotida juda ko‘p masalalar tilga olingan bo‘lsa ham, ularni tematik jihatdan, shartli ravishda shunday tavsif etish mumkin: ishqiy, falsafiy, didaktik va ijtimoiy-siyosiy. Lekin shu o‘rinda ayrim masalalarga izoh berish zarur: ishqiy deganda biz falsafiy

¹⁰ Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. Тошкент, 1965, 9-56 - бетлар.

bo‘yoqdan holi bo‘lgan va kirkret hayotiy tasvir ruhidagi g‘azallarni nazarda tutamiz. Tasavvuf ruhidagi ishqiy she‘rlar esa falsafiy she‘rlar doirasiga kiradi. Odatda tabiat tasviriga bag‘ishlangan g‘azallar alohida guruhlanadi. Lekin haqiqiy ijodkor uchun peyzaj tasviri mohiyatsiz o‘z-o‘zicha bir hodisa emas, balki u falsafiy, didaktik yoki ijtimoiy ruhdagi biror g‘oya, maqsadni ifoda etish uchun o‘ziga xos vosita rolini o‘ynaydi. Peyzaj shoir tasavvurida muayyan assotsiatsiya hosil qilishi yoki biror fikrning yuzaga kelishida turtki bo‘lishi bilan ma’lum bmr ijtimoiy, poetik mohiyat kasb etadi. Shuning uchun ham u ishqiy, falsafiy, didaktik yoki ijtimoiy guruhga mansub bo‘lishi mumkin. Satirik g‘azallar esa ijtimoiy xarakterdagi g‘azallar guruhiga mansub.

Ustod Shayxzoda Navoiyning lirik qahramoni haqida shunday yozgan edi: “G‘aroyibu-s-sig‘ar”da ham lirik qahramon Navoiyning o‘zidir. Bu – murakkab bir zamonda yashagan, tushunuvchi, o‘ylovchi, hassos va olijanob bir shaxsning boy, serohang, rang-barang, sermazmun, sof ma’naviy, botiniy, dunyosini o‘zida gavdalantirgan bir qahramondir. Bu sezuvchi, dunyo, jamiyat va xalqni o‘ylovchi bir insondir. Uning asosiy fojiasi olijanob shoir bilan qo‘pol va noinsof odatlar, qoidalar, tushunchalar o‘rtasidagi qarama-qarshilikdan kelib chiqadi¹¹.

Bu ta’rif garchi “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devoni asosida berilgan bo‘lsa ham, umuman, Navoiy she’riyati markazida turgan lirik qahramon qiyofasi uchun eng muhim jihatlarni qamrab olgan.

Agar Navoiy salafllari g‘azallarida lirik qahramonning munosabati “men va ma’shuqa (yoki yor)” tarzida qo‘yilgan bo‘lsa, Navoiyda uning munosabat ob’ekti nig‘oyatda keng: men va yor (“yor”ning ma’nosi ham keng), men va falak, men va davron, zamon, men va zamon ahli. Zamon ahli esa keng tushuncha bo‘lib, gadodan shohgacha, fosiqdan dono mutafakkirgacha bo‘lgan barcha tabaqani qamrab oladi. Ana shunday munosabat asosida lirik qahramon xarakteriga xos boy qirralar namoyon bo‘ladi va u ko‘z oldimizda traditsion oshiq sifatida emas, balki yuksak e’tiqodli vafodor oshiq va do‘st, zukko faylasuf va murabbiy, teran va mulohazali arbob va siyosatdon tarzida namoyon bo‘ladi. Eng muhimi, u parda ortida turib mulohaza yurituvchi mavhum shaxs emas, balki konkret muhit va zamon bilan bevosita bog‘langan yorqin obraz qiyofasiga ega. Zotan, Navoiy g‘azalining mohiyati unda gumanist san’atkorning abstrakt masalalarga doir pardali mulohazalari emas, balki uning real hayotga hamda o‘z zamonasiga nisbatan real fikr va tuyg‘ularning haqqoniy ifoda topganligidadir. SHu jihatdan lirik qahramonning hayotga va zamonga munosabatini aniqlash shoir ijodiyotining asosiy mohiyati haqida muayyan xulosaga kelish uchun imkon beradi. Chunki real hayotga munosabat

¹¹ Мақсуд Шайхзода. Асарлар. 6 томлик, IV том.– Тошкент: Ғ.Ғулом, 1971. – Б. 161.

ijodkorning borliq haqidagi falsafiy konsepsiyasiga bog‘liq bo‘lsa, davrga, zamonga munosabat uning ijtimoiy pozitsiyasi va qarashlari bilan bevosita aloqador.

Navoiyning hayotga va zamonga munosabati g‘azallarda, ularning tematik yo‘nalishi va uslubi bilan bog‘liq holda, turlicha aspektda namoyon bo‘ladi. Ba’zi she’rlarda shoirning pozitsiyasi ochiq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinsa, ayrimlarida biror mavzu bilan aloqador – bilvosita yuzaga chiqadi. Shuningdek, ba’zi bir g‘azallarda, mavzu e’tibori bilan, o‘oirning falsafiy kontsepsiyasi yoki ijtimoiy pozitsiyasi birinchi planda ko‘rinsa-da, ana shu masalalarniing ikkinchi tomoni ham u yoki bu darajada (garchi ikkinchi planda bo‘lsa ham) tajassum etishi mumkin.

Navoiy g‘azaliyotida ishq mavzusi yetakchi o‘rin tutib, lirik qahramon dastlab oshiq qiyofasida namoyon bo‘ladi, lekin ishq mavzusi chuqur falsafiy va ijtimoiy mohiyati bilan karakterlanadi. Shuning uchun ham unda shoirning hayot haqidagi optimistik konsepsiyasi va ijtimoiy pozitsiyasi turli aspektda namoyon bo‘ladi.

Navoiygacha bo‘lgan yaqin va O‘rta Sharq poeziyasida yetakchi o‘rin tutgan bu mavzuga Navoiy o‘z ijodiyotining barcha bosqichlarida, deyarli barcha lirik janrlarda murojaat qiladi.

Navoiy lirik she’rlarining poetikasini tadqiq etish jarayonida shoir ijodiy dahosiga xos yuksak novatorlik qirralarini namoyish etuvchi ko‘plab nuqtalarga duch kelishimiz mumkin.

Ana shunday o‘rinlarda biz Navoiyning faqat adabiy an‘analarga emas, balki barqaror adabiy qonun-qoidalarga (kanon)ga nisbatan ham keskin ijodiy munosabati va shu asosda yuzaga kelgan ulkan novatorligini bevosita mushohada etishimiz mumkin.

Lekin shuni ta’kidlash kerakki, navoiy devonidagi ayrim janrlar o‘zbek adabiyoti uchun yangilik bo‘lsa ham, fors-tojik adabiyotida ularning qat’iy qonun-qoidalarga ega bo‘lgan namunalari mavjud edi.

Navoiy ana shunday janrlarda qalam tebratganda mavjud namunalar bilan bog‘liq qonun-qoidalarni nazarda tutganligi, shubhasiz. Zotan, uning novatorlik darajasi ham ana shu qonun-qoidalar doirasini qanchalik yorib chiqqanligi, ularni qay darajada kengaytirganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, ana shunday janrlar masalasida biz ularning forsiy namunalari asosida fikr yuritishimizga to‘g‘ri keladi.

O‘zbek tilida soqiynomaning birinchi namunasi bo‘lmish Navoiy soqiynomasini shu janrning umumiy tarixi fonidan olib tahlil etish asosida “Shoir va adabiy kanon” degan masalaning muhim qirralarini izohlashimiz mumkin

Ma’lum bo‘ladiki, Navoiyning janr an‘analariga tanqidiy munosabati, birinchi navbatda, ularning tematikasi, tub mohiyati bilan aloqador. O‘nlab janrlardan tuzilgan butun boshliq devonning, asosan, ishqiy mavzuga bag‘ishlanishi, navqiron shoirni mutlaqo qanoatlantirmagan.

Shuning uchun ham u, birinchi navbatda, devonning g‘oyaviy-tematik asoslarini kengaytirishga jiddiy ahamiyat bergan.

Navoiy mazkur debochada bevosita g‘azal poetikasi haqida to‘xtalib, bu boradagi tanqidiy mulohazaoarini shunday bayon qiladi: “Yana bukim, soyir devonida rasmiy g‘azal uslubidinkim, shoyi’ turur, tajovuz qilib, maxsus nav’larda so‘z arusining jilvasiga namoyish va jamoliga oroyish bermagaydurlar. Va agar ahyonon matlae maxsus nav’da voqi’ bo‘lsa, hamul matlab uslubi bilan itmom xil’atin va anjom kisvatin kiydirmaydururlar, balki tugaguncha agar bir bayt mazmuni visol bahorida guloroylik qilsa, yana biri firoyq xazonida xornamoyliq qilibdurlar. Bu surat dag‘i munosabatdin yiroq va muloyamatdin qiroq ko‘rundi. Ul jihatdin sa’y qilindikim, har mazmunda matla’ voqe’ bo‘lsa, aksar andoq bo‘lg‘aykim, maqta’g‘acha surat xaysiyatidin muvofiq va ma’ni jonibidin mutobiq tushgay”¹².

“Adabiy janr kategoriyasi – tarixiy kategoriya. Gap ba’zi bir janrlar o‘rniga boshqasini kelishi va biror-bir janrning adabiyot uchun “abadiy” bo‘lolmasligidagina emas, gap yana shundaki, ayrim janrlarni ajratib olish printsiplarining o‘zi ham, janrlarning tipi va xarakteri, ularning funktsiyalari ham u yoki bu davrda o‘zgaradi”. Shuningdek, “adabiyot janrlarining barchasi birgalikda muayyan sistemani tashkil etadi va bu sistema turli tarixiy davrlarda turlicha bo‘ladi”.

Umuman, u yoki bu janrning ayrim ijodkor yoki adabiy jarayondagi mavqei konkret tarixiy sharoit bilan chambarchas bog‘liq. Adabiyot taraqqiyotining turli bosqichlarida, mavjud estetik tasavvurlar sistemasi bilan bog‘liq holda ma’lum bir janrlar dominant – hukmronligi yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, har bir milliy adabiyotning o‘z ichida janrlarning o‘ziga xos mavqei bo‘lishi, shubhasiz. Ayni zamonda janrlarning “hukmronligi”ni belgilaydigan mezonning o‘zi ham, har bir davr estetik tasavvurining estetik darajasi bilan bog‘liq holda, o‘zgara boradi. Umuman, yangi tarixiy bosqichda, umumiy estetik tasavvurlarning xarakteri bilan bog‘liq holda, janrlar sistemasida ham o‘ziga xos sifat o‘zgarishlari bo‘ladi. Masalan, Navoiygacha bo‘lgan lirikada abstrakt – romantik tasvir asosiy o‘rin tutib, epik asarlarda afsonaviy ruh yetakchilik qilsa, Navoiy asarlarida konkret detallar, real hayotiy masalalar, real his-tuyg‘ular muhim o‘rin tutganligini ko‘ramiz.

Lekin shuni ta’kidlash kerakki adabiyot tarixining muayyan davrlaridagi janrlar dominant va mavqei ana shu adabiy jarayonning faol kuchi bo‘lmish atoqli san’tkorlar faoliyati natijasida, ularning ijodiyoti vositasida yuzaga chiqadi. Shu jihatdan XU asrning ikkinchi yarmidagi o‘zbek adabiyotida, jumladan lirik poeziyada janrlar sohasida yuzaga kelgan son va sifat o‘zgarishlari, mavjud janrlarning ana shu davr adabiy jarayonida tutgan mavqei bevosita

¹²Навоий, Алишер. Фавойиду-л-кибар. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, IV ж. – Тошкент: Ф.Фулум, 2011. – 769 – 770-бетлар.

Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati bilan bog'langan. Biroq yana bir holatni unutmaslik kerak: janrlar ustunligi va inqirozi faqat adabiy jarayon uchungina xos bo'lmay, bunday hol, ayni zamonda, ayrim bir san'atkorning ijodiy faoliyati doirasida ham yuzaga kelishi mumkin. U yoki bu adib o'z ijodining muayyan bosqichlarida ma'lum bir janrlarga murojaat qilishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Bu, albatta, ob'ektiv (umumiy adabiy jarayon, muhit ta'siri) va sub'ektiv (ijodkorning shaxsiy tamoyili) faktorlarning taqozosi bilan yuzaga keladi.

Ma'lumki, Navoiy devonini tashkil etgan 3132 ta she'r 16 ta janrga mansub. Biroq ana shu janrlarning hammasi Navoiy ijodiyotida bir xil salmoqqa ega bo'lmaganidek, ularning qo'llanish darajasi ham shoir ijodiy faoliyatining barcha bosqichlarida bir xil emas. Masalan, ilk davrida (bu devon muallifning o'zi emas, balki shoir she'rlarining muxlislari tomonidan tuzilganligini ham nazarda tutish kerak, albatta) to'rtta (hazal, mustazod, muxammas, ruboiy) lirik janr mavjud bo'lsa, yigitlik davridagi she'rlar 13 ta janrda yozilgan (g'azal, masnaviy, qasida, muxammas, musaddas, ruboiy, qit'a, mustazod, fard, muammo, lug'z, tarjiband, tuyuq). O'rta yosh davridagi she'lardan tuzilgan devonga ("Navodiru-n-nihoya") sakkizta janrga mansub she'rlari kiritilgan bo'lsa ham, g'azaldan boshqalari oldingi devonlardan olingan. Demak, bu davrda (1476-86) Navoiy lirik janrlardan faqat g'azal bilan mashg'ul bo'lgan.

Qarilik davrida esa o'n ikkita janrda qalam tebratgan (g'azal, muxammas, musaddas, qit'a, ruboiy, tarkibband, tuyuq, mustazod, musamman, tarjiband, soqiynoma, fard).

Bunday hol, albatta, tasodifiy bo'lmay, ob'ektiv va sub'ektiv (ijodiy rejasi, maqsadi) taqozosi bilan yuzaga kelgan. Jumladan, o'rta yosh lirikasi faqat g'azaldan iborat bo'lib qolishini ob'ektiv sabab bilan (bu davrda Navoiyning "Xamsa" ustida juda qattiq ish olib borganligi va o'zining jiddiy mulohaza va boy kechinmalarini ana shu asar tarkibiga singdirib yuborganligi bilan) izohlash mumkin.

Lekin Navoiy hech bir davrda g'azalni e'tibordan chetda qoldirmagan va uning hayotiy taassurotlari va mulohazalari bevosita shu janrda o'zining poetik ifodasini topgan.

Demak, Navoiyning butun ijodiy faoliyati jarayonida g'azal boshqa lirik janrlarga nisbatan "hukmron" mavqeda turgan. Ana shu yetakchi mavqeda turish uning son jihatidan ham, mohiyati nuqtai nazaridan ham yuqori pog'onaga ko'tarilishiga imkoniyat yaratgan.

Navoiy fors adabiyotida yuksak taraqqiyot bosqichida bo'lgan eng muhim janrlarga (g'azal, qit'a, ruboiy kabi) butun e'tiborini qaratar ekan, o'zbek she'riyatida ham shu janrlarning saviyasi va mavqeini shu darajaga ko'tarish, ularning turkiy til va u bilan aloqador badiiy tafakkur zaminidagi boy imkoniyatlarini namoyish qilish va umuman jahonshumul poeziya bilan bir qatorda turadigan yuksak she'riyat yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Adabiyot tarixida soqiynoma janri boshqa lirik janrlarga nisbatan nihoyatda kam yaratilgan. Agar fors-tojik she'riyatining ming yillik tarixidagi necha yuzlab shoirlar merosi

ichida bir necha o‘nlab soqiynomani uchratish mumkin bo‘lsa, turkiy tildagi soqiynomalar soni o‘nga ham yetmasa kerak. Hoji Xalifa (XVIII asr) “Kashf uz-zunun” asarida turk tilida soqiynoma yozgan faqat to‘rtta shoirning nomini keltiradi. (Navoiy asarlarini ko‘rmagan yoki faqat usmonli turk mualliflarini nazarda tutgan).

Forsiy soqiynomalarni to‘plab, nashr etish borasidagi ma’lum ishlar amalga oshirilgan. XVII asr boshlarida Hindistonda (fors, urdu tillarida) soqiynoma janri nihoyatda rivoj topadi. Shu davrda (hijriy 1028 – milodiy 1618/19) mulla Abdunabi Faxruzzamoni Kazviniy barcha forsiy soqiynomalarni to‘plab urdu tilida “Tazkirai mayxona”ni tuzadi. Bu asar 1936 yilda Lohurda professor Muhammad Shafening so‘z boshisi bilan nashr etilgan. Bu tazkira Eron olimi Ahmad Gulchini Maoniy tomonidan tarjima qilinib, qo‘shimcha (18 ta shoir) va izohlar bilan 1967 yilda nashr etildi.

Janrning poetika va evolyutsiyasi masalasi ham jiddiy tadqiqotga muhtoj. Hatto terminologik lug‘atlarining aksariyatida bu janr haqida maxsus izoh berilmagan. Keyingi davr lug‘atlarida uchraydigan ayrim tavsiflar esa janrning mohiyatini to‘g‘ri va to‘liq ifoda etmaydi. Chunonchi, o‘zbek tilidagi lug‘atda soqiynomaning har bir bandi g‘azal kabi qofiyalanib boradi va har band oxirida masnaviy tarzidagi bayt naqoratdek takrorlanadi, deb izohlanadi, misol tariqasida “Xarobot aro kirdim oshufta hol” misrali bayt keltiriladi. Holbuki, bu soqiynoma emas, balki Navoiy tarjebandidan olingan va yuqoridagi ta’rif ham shu janrga taalluqli.

Professor Muhammad Shafe mazkur tazkiraga yozgan muqaddimasida soqiynomani masnaviy shaklida, mutaqorib bahrida yoziladigan maxsus she’ri sifatida ta’rif qiladi (“Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da ham mutaqorb bahri deb ko‘rsatilgan). Lekin bu janrning faqat mutaqorib bahrida bo‘lishi sabablari biror yerda izohlangan emas. Qolaversa, bu janrning forsiy she’riyatdagi asoschisi Nizomiy o‘zining yaxlit soqiynomasini hazaj bahrida (“Layli va Majnun” dostonining muqaddimasida) yaratgan. 16 band va 136 baytli bu masnaviy mustaqil asar bo‘lib, doston syuyujetiga hech qanday aloqador emas va oxirgi bir bayt o‘quvchi fikrini asar voqeasiga qaytaradi.

Abdurahmon Jomiy ham “Layli va Majnun” debochasida 70 baytli (etti bandli) soqiynoma keltirgan.

Turkiy tildagi soqiynomaning birinchi yuksak namunasi hisoblangan Navoiy soqiynomasi ham ramal bahrining musaddasi maxbun tarmoqlarida yozilgan.

Professor Y.E.Bertels Nizomiy dostonidagi mazkur masnaviyini dastlab “Soqiynoma tipidagi asar” desa¹³ ham, Kafzodaning Nizomiy asariga tatabbu sifatida yozgan dostoni haqida so‘z yuritgan paytda o‘sha asarni soqiynoma deb ataydi¹⁴.

¹³ Бертельс Е.Э. Низами и Фузули. – Москва: Наука, 1962. – С. 252 – 253.

¹⁴ Ўша асар. – Б. 312.

Professor Y.Ishoqov soʻqiy nomaning mohiyati masalasida soʻzlab, “bu sheʼr, odatda, oʻtgan yaqin kishilar xotirasiga bagʻishlanadi. Shu munosabat bilan olamning besabotligi va olam ahlidan shikoyat, shuningdek, befoyda gʻamu anduhni unutib, vaqtni gʻanimat tutish gʻoyasi ham yuzaga chiqadi”¹⁵, deydi.

Binobarin, Nizomiy mazkur soʻqiy nomaga “Dar sifati holi xesh va yodi guzashtagon” (Oʻz ahvolim tavsifi va oʻtganlar xotirasida) deb, Jomiy ham xuddi shu maʼnoda (baʼzi oʻtganlar zikri va baʼzi hamnafaslar duosi maʼnosida) sarlavha qoʻygan. Nizomiy asarining bosh qismi ota-onasi va togʻasi xotirasiga bagʻishlangan boʻlib, qolgan bandlarda falsafiy-ijtimoiy va didaktik xarakterdagi masalalar borasida soʻz boradi. Jomiy masnaviysida ham oʻtganlarni eslashga ikki band ajratilgan. Qolgan besh band esa podshohlar masalasi, doʻstlar mehri va Navoiy, ishq mavzuiga bagʻishlangan. Hofizning mustaqil holatda yaratgan soʻqiy nomasi ham oʻtgan doʻstlarni eslash bilan boshlanib, davrning zolimligi, umrning bevafoqligi, shohlarga murojaat, gʻanimat damlardan oqilona foydalanish, juvonmardlik kabi mavzularga oʻtib ketiladi. Xuddi shunday xususiyatlarni boshqa soʻqiy nomalarda ham uchratish mumkin.

Lekin “Tazkirai mayxona”da Nizomiy va Jomiyning mazkur masnaviylari tilga ham olinmagan. Tazkira muallifi ham, professor Shafe ham janrning (fors adabiyotida, albatta) asoschisi sifatida Nizomiyni eʼtirof etadilar. Biroq tazkirada keltirilgan sheʼrlar “Iskandarnoma” dostonidan terib olingan. Har bir bob oldidan lirik muqaddima tarzida berilgan soʻqiyga murojaat oʻquvchini oʻsha bobdagi voqea yoki masalalar doirasiga olib kirish uchun xizmat qiladi. Binobarin, har bir lirik parchaning mohiyati u taallqli boʻlgan bobning mazmuni bilan chambarchas bogʻlangan. Ularni doston mazmunidan uzib olib, birin-ketin qoʻyish esa sunʼiylikdan iborat. Shuningdek, bu parchalarda soʻqiy noma uchun eng zaruriy boʻlgan bir talab – oʻtganlarni xotirlash gʻoyasi va shu bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy-falsafiy masalalar muntazam bir yoʻsinda mavjud emas (bu masalani shoir qoʻymoqchi ham emas).

Demak, bizningcha, forsiy soʻqiy nomaning dastlabki haqiqiy namunasi – bu Nizomiyning “Layli va Majnun ” tarkibidagi (16 band – har bir band soʻqiyga murojaat bilan boshlanadi) 136 baytli masnaviy hisoblanadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, professor Shafe “Iskandarnoma”dan terib olingan baytlarni tizma tarzidagi soʻqiy noma deb ataydi. Biroq shuni ham nazarda tutish kerakki, ular alohida olinganda bir sheʼr boʻla olmaydi, ularda faqat soʻqiy noma koʻrinishlarigina (fikroni bayon qilish usuli) mavjud.

Xoji Kirmoniyning “Humoy va Humoyun” asari tarkibida ham hayotdan shikoyat ruhida yozilgan 87 baytli (9 band) soʻqiy noma koʻrinishidagi masnaviy mavjud. Alohida yozilgan

¹⁵ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 87.

mustaqil soqiynoma Hofiz qalamiga mansub. Lekin Hofiz masnaviysining dastlabki 15 bandi mug‘anniyga murojaat bilan boshlanadi (bu qismni “mug‘anniyoma” deyish to‘g‘ri bo‘ladi).

Xullas, “Navoiyga qadar bo‘lgan fors adabiyotida soqiynoma janr sifatida, asosan, ikki xil ko‘rinishda mavjud edi”¹⁶, deb ta’kidlaydi Yo.Ishoqov va ularni quyidagicha tasniflaydi: a) epik asarlar tarkibida (“Soqiynomai fi-l-jumla”); b) mustaqil shaklda, “Iskandarnoma”lar tarkibida esa soqiynoma shaklidagi baytlar (badiiy usul sifatida) keng qo‘llanilgan.

Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotida esa faqat soqiynoma shaklidagi baytlargina mavjud. “Muhabbatnoma” (3 bayt), “Latofatnoma” (1 bayt), “Taashshuqnoma” (3 – 5 bayt) kabi asarlarda poetik xulosalarning ifodasi uchun soqiyga murojaat usuli qo‘llangan. Bu usul Navoiy “Xamsa”sida mahorat bilan ishlatilgan. Ma’lumki, soqiynoma shaklidagi baytlar Nizomiy, Xusrav va Jomiy “Xamsa”larining Iskandar haqidagi dostonidagina qo‘llangan. Nizomiyda faqat soqiyga murojaat qilinsa, Xusrav va Jomiyda boblar oxirida 2 bayt soqiyga va 2 bayt mutribga qaratilgan murojaat tarzida keltiriladi. Navoiy “Saddi Iskandariy”sida ham soqiy (ayoqchi) bilan mug‘anniy doimo yonma-yon keladi. Lekin muhimi shundaki, Navoiy boshqa dostonlarida ham bu usulni (“Sab’ai sayyor”dan tashqari) turlicha holatlarda ishlatgan: Hayratlarda, boblar oxirida hamda hikocht va mav’izalar oxirida, “Farhod va Shirin”da ham boblar so‘ngida va xotimada, “Layli va Majnun”ning X – XX boblarida turli ob’ektlarga murojaat, XXXVIII bobda esa bevosita soqiyga murojaat tarzida uchraydi.

Xullas, Navoiy salafari asarlarida ma’lum doiradagina ishlatilgan (“Xamsa”larda faqat Iskandarga bag‘ishlangan dostonlarda, o‘zbek adabiyotida esa faqat nomalar tarkibida) bu usul shoir “Xamsa”sida mohiyat e’tibori bilan yanada inkushof topdi.

Turkiy tildagi soqiynomalarning janr sifatida tashakkuli va rivoji esa bevosita Navoiy nomi bilan bog‘langan. Chunki “Kashf uz-zunun” muallifi eslatib o‘tgan turk tilidagi soqiynomalar XVII asrga to‘g‘ri keladi. O‘zbek adabiyotida esa Navoiyga qadar shu janrda yozilgan birorta she’r ma’lum emas. Shu jihatdan Navoiyning bu asari o‘zining g‘oyaviy-badiiy fazilatlarini bilan, umuman, soqiynoma janrining taraqqiyoti tarixida yangi va yuksak bosqich hisobdanadi.

1.2. Navoiy ijodida soqiynoma janriga murojaatning sabablari.

Navoiy soqiynomasi “Favoyidu-l-kibar” devoniga kiritilgan bo‘lib, 32 band (458 bayt)dan iborat. Soqiynomada Jomiy marhum sifatida, “Majolisu-n-nafois” asari mavjud asar sifatida, shuningdek, Mo‘min Mirzo hayot kishi sifatida tilga olinishiga qarab, asar 1492 yildan keyin va 1497 yildan oldin yozilgan deb xulosa chiqarish mumkin.

¹⁶ Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 89.

Hajm jihatidan kichikroq doston darajasida, mohiyat nuqtai nazaridan sintetik xarakterda bo‘lgan bu asar yaqin davrlargacha tadqiqot doirasidan chetda qolib kelgan.

Yuqorida eslatganimizdek, turkiy soqiynomalar haqida maxsus ma’lumot bergan Hoji Xalifa ham birinchi turkiy soqiynoma bo‘lmish bu asarni tilga olmagan. Y.E.Bertels esa “Navoiy” monografiyasida bu asarni tilga olib o‘tsa-da, uning mohiyatini yuzaki izohlaydi (ya’ni, “May va muhabbatni kuylovchi”). Soqiynoma haqida birinchi maxsus baho A.Hayitmetovning “Navoiy lirikasi” monografiyasida berilgan¹⁷.

A.Hayitmetov bu asar avtobiografik xarakterda yozilganligini, unda optimistik ruhning yetakchi ekanligini, mazmun bilan shaklning uyg‘unligini ta’kidlab ko‘rsatadi. Keyinchalik, F.Nabiev bu asarning “adabiy-biografik manba” sifatidagi ahamiyatiga maxsus maqolalar bag‘ishlagan¹⁸. Lekin bu asarni keng rejada olib tekshirish Navoiy ijtimoiy, axloqiy qarashlarining evolyutsiyasi, poetik uslubining o‘ziga xos tomonlarini, va nihoyat, uning poetik janrlarning takomili tarixidagi buyuk xizmatlarini ko‘rsatish uchun yordam beradi.

Ma’lumki, soqiynomaning yaratilishi uchun asosiy sabab hayot bo‘lmagan yoru birodarlarni eslashdan iborat. Lekin bu masala ma’lum darajada vosita xarakterida bo‘lib, boshqa bir qator masalalarda fikr yuritish uchun turtki bo‘lgan. Jumladan, Nizomiyda (“Layli va Majnun”da) dastlabki bandlar yaqinlari xotirasiga bag‘ishlangan bo‘lib, falsafiy-axloqiy, ijtimoiy xarakterdagi mulohazalar asarning katta qismini tashkil etadi. Hofiz asarida esa olam haqidagi falsafiy mulohazalar, adolat, hayotparvarlik g‘oyalari talqini yetakchi o‘rin tutadi.

Navoiy soqiynomasi o‘z mohiyatining muhim ikki jihati bilan salaflari asarlaridan farq qiladi:

1.Navoiy salaflari asarlarida qo‘yilgan masalalar nihoyatda muhim, ammo umumiy xarakterga ega bo‘lsa, Navoiyda tarixan aniq davr va sharoit bilan bog‘liq holda olingan.

2.Navoiy soqiynomasida qo‘yilgan masalalar doirasi ancha keng bo‘lib, ayrim ijtimoiy xarakterdagi masalalar aniq zaminda yanada chuqurlashgan. Chunonchi, I – XIV bandlar Husayn Boyqaro va uning o‘g‘illariga, XVI – XX bandlar jiyani, nabira va ba’zi yaqinlariga bag‘ishlangan. XXI – XXVII bandlarda Navoiyga shaxsan yaqin bo‘lgan ijodkorlar (Vafoiy, Mir Haydar Suhayliy, Tufayliy, Jomiy, Sayid Hasan, Pahlavon Muhammad kabi) haqida so‘z boradi. XXVIII band ishq va u bilan bog‘liq kechinmalar, XXIX band esa vafo va zamon ahliga bag‘ishlangan. XXX bandni o‘zining sodiq do‘stlari bo‘lmish marhum shoirlardan ayrimlariga (Muammoyi, Xoja Kamol, Mir Sadr, Bade’iy, Yor Tanbal, Sabzavoriyga), XXI bandni esa hayot bo‘lgan ijodkorlarga bag‘ishlagan. XXXII band xulosa o‘rnida bo‘lib, shoh madhi bilan yakunlanadi.

¹⁷ Хайитметов А. Навоий лирикаси, 42 – 42 бетлар.

¹⁸ Халклар дўстлиги – адабиётлар дўстлиги. Низомий номидаги ТДПИ илмий тўплами. 99-том. Тошкент, 1972, 157 – 178-бетлар.

Soqiynoma Navoiy ijodida o'ziga xos mavqega ega. Bu asarda Navoiyning turli xarakterdagi asarlarida har xil o'rinda yoritilgan ayrim masalalar, o'z zamondoshlari bo'lmish hukmronlar, ijodkorlarga bo'lgan munosabati, o'z faoliyatining ayrim bosqichlari haqidagi mulohazalari lirik holatda o'ziga xos ifodasini topgan. Bu asar ulug' shoirning shaxsiyati, uning ruhiy dunyosi bilan bog'liq fikr va tuyg'ularning haqqoniy tasviridan iborat yaxlit bir san'at asaridir.

Soqiynoma, eng avvalo, Navoiyning shaxsi bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalarni o'zida aks ettirganligi bilan ahamiyatlidir. Gap shoirning zamondoshlari bo'lmish shoh va shahzodalar haqida boradimi, ijod ahli vakillari ustidami, davrning ayrim masalalari borasidami – baribir, ularning barchasi Navoiy shaxsiyati bilan u yoki bu darajada aloqador bo'lib, ana shu nuqtai nazar bilan baholanadi. Muhim tomoni shundaki, asarning ko'pchilik qismi Navoiyning turli shaxslarga, ularning faoliyatiga munosabatini tasvirlashga bag'ishlangan bo'lsa ham, tasvir jarayonida shoirning davrning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va estetik masalalariga doir qarashlari ham bilvosita namoyon bo'ladi.

Soqiynomaning tarixiy-adabiy ahamiyatini belgilovchi omillardan biri bu asarga kiritilgan shaxslar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarning haqqoniyligi, tarixiy haqiqatga mos kelishidir. Bu fazilat asarning barcha komponentlari uchun bab-barobar taalluqlidir. Misol uchun soqiynomaning Sulton Husaynning o'g'illari Abuturob Mirzo bilan Muhammad Husayn Mirzoga bag'ishlangan XIII bandini olib ko'raylik:

*Soqiy, jomi g'aribona ketur,
Men g'arib ichsam ani, yona ketur.
Kim kelur ko'nglima ul ikki g'arib,
Kim ul ikkini jalo qildi nasib.
Ayrul shah yanglig' atodin ham alar,
Yuz tuman komi ravodin ham alar.
Ne ekin hollari g'urbat aro,
Boshqa g'urbatta kelur shiddat aro?!*

Navoiy shahzodalarning har biriga alohida band bag'ishlagani holda, mazkur ikki podshohzoda haqidagi fikrlarini bitta bandga joylagan.

Bandlarning boshidanoq “jomi g'aribona” ga ishtiyoq bildirishi va keyingi tasvirning shunga mutanosib holda borishi (“men g'arib”, “ul ikki g'arib”) o'quvchi diqqatini masalaning mohiyatiga yo'naltiradi. Demak, har ikki shahzodaning muayyan davrdagi turmushi bir-biriga o'xshash bo'lib, ularning taqdiri g'urbat bilan bog'langan (asar yozilgan paytda, albatta). Bu

tasvirning haqiqatga qanchalik to‘g‘ri ekanligi hamda shoir tuyg‘ularining naqadar tabiiy va haqqoniyligini “Boburnoma” ma’lumotlari ham to‘la tasdiqlaydi: “Yana bir Abuturob Mirzo edi. Burunlar andin xili rushde rivoyat qilurlar edi. Otasining behuzurlig‘i ortkonda o‘zgacha xabar eshitib, inisi Muhammad Husayn Mirzo bilan qochib Iroqqa bordi. Iroqda sipohiylarni tark etib, darveshlik ixtiyor qilubdur. Yana andin xabare topilmadi”.¹⁹ Umuman, soqiynomadagi har bir ma’lumot aniq hayotiy ma’lumotga asoslangan bo‘lib, tarixiy, adabiy asarlarda (shoirning o‘z asari yoki zamondoshlari asarlarida) mavjud ma’lumotlar bilan muvofiq keladi. Xuddi shunday xulosani asardagi shaxslar xarakteristikasi borasida ham aytish mumkin. Biroq Navoiy bu asarda oldingi ma’lumotlarini aynan takrorlamaydi. Balki o‘zining u yoki bu shaxs haqidagi barcha qaydlarini e’tiborga olgan holda, bu yerda butunlay yangicha yo‘l tutadi: boshqa o‘rinlarda batafsil xarakteristikasi berilgan shaxslar haqida bu asarda umumlashma xarakteridagi tavsif mavjud bo‘lib, ular xarakterining eng muhim tomonlari bayon qilinadi hamda muallifning ularga munosabati, ularni esga olganda vujudini qamrab oladigan ezgu tuyg‘ulari haqiqiy lirik she’rga xos nafas bilan izhor qilinadi. Binobarin, soqiynomadagi tasvir va xulosalarni Navoiyning boshqa asarlari tarkibidagi ma’lumotlar bilan qiyoslash, bir jihatdan, bu asarning mohiyati, uning uslubiga xos belgilar haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, Navoiyning muayyan masalalardagi qarashlari qanchalik izchil ekanligini ko‘rsatadi. Biroq Navoiyning soqiynomada o‘ziga zamondosh bo‘lgan ijodkorlardan ba’zi birlari haqidagi ta’riflari uning “Majolisu-n-nafois”dagi ma’lumotlarini ma’lum darajada to‘ldirish va izohlashga yordam beradi. Masalan, Navoiy “Majolis”da Tufayliy haqida muxtasar, lekin to‘liq ma’lumot beradi.²⁰

Soqiynomada ham unga alohida bob bag‘ishlangan (XXII band).

Xarakterli tomoni shundaki, Navoiy “Majolis”da Tufayliyning shaxsiyati va taqdiriga ko‘proq e’tibor bergan bo‘lsa, keyingi asarida shoir ijodiyotining yetakchi xususiyatlarini ko‘rsatish va uning davr adabiy muhitidagi o‘rnini (“madh uslubi edi beravnaq”) belgilashga harakat qilgan. Binobarin, har ikki asardagi ma’lumotlar bir-birini takrorlamaydi, balki to‘ldiradi.

Navoiy qaydlari va xarakteristikalarining naqadar ob’ektiv ekanligini “Boburnoma” ma’lumotlari ham tasdiqlaydi²¹.

Soqiynomaning ahamiyatini belgilovchi omillaridan biri unda muallif ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishining ayrim tomonlari o‘z ifodasini topganligidadir. Navoiyning lirik she’rlari tarkibida o‘ziga xos ravishda, va xususan, epik asarlarda ancha keng o‘rinda qo‘yilgan shohlik tuzumi va shohning shaxsiyati masalasiga bu asarda ham o‘rin berilgan.

¹⁹ Бобурнома. Тошкент. 1990 й.

²⁰ Алишер Навоий. Асарлар. 12-том. Тошкент, 1966.

²¹ Бобурнома. 237-бет

Navoiyning ideali bo'lgan darveshsifat shoh haqidagi qarashlari bu asarda ham o'z ifodasini topgan:

*Shoh agar darveshvash esa, shahdur,
Shohu darvesh ishidin ogahdur...*

Biroq bu xususiyatlar Navoiy tasavvuridagi ideal shoh xarakteriga xos ayrim belgilar, xolos. Shohning haqiqiy qiyofasini belgilaydigan asosiy omil esa uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati hisoblanadi. Shoh mamlakatning boshlig'i sifatida uning ichki holati (mamlakat ozodligi, madaniyati rivoji, xalq ommasining moddiy-ma'naviy sharoiti) uchun ham, tashqi siyosati uchun ham shaxsan javobgardir. Navoiy o'z tasavvuridagi adolatli, ma'rifatli, darveshsifat shohni Sulton Husayn shaxsiyatida ko'rishni orzu qiladi va imkoni boricha uni shu yo'lga targ'ib qiladi. Albatta, Navoiy o'z maqsadi va g'oyalarini har bir asarining janr xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlari darajasida tasvir etgan. Bu masala, xususan, uning "Xamsa"sida juda keng ko'rinishda yoritilgan. Biroq soqiynomada bu masala o'ziga xos yo'sinda hal etiladi: Navoiy o'z muddaosini to'g'ridan-to'g'ri muxtasar bayon qiladi. Shohni adlu insofga targ'ib qilar ekan, ibratli dalil sifatida uzundan-uzun hikoya keltirmaydi, balki hayot qonuniyati, o'tmishdagi podshohlar taqdirini birma-bir eslatib o'tadi. Binobarin, kichik bir lirik lavhada Navoiyning Husayn Boyqaroga bag'ishlangan fikr va tuyg'ulari falsafiy-didaktik zaminga ega bo'lgan siyosiy murojaatnoma tarzida ro'yobga chiqqan (shoir muqaddimadan so'ng asosiy saqsadga o'tadi):

*Bevafodur falaki buqalamun,
Sozu ohangiga yo'q bir qonun.
Yo'q baqo shoh ila shavkatga dog'i,
Yo'q vafo umr ila davlatga dog'i...
Ko'rki, har shabki yurub oldi jahon,
Barcha bordurmu qaro yerda nihon?
Ham Kayumars ila Xushang qoni,
Ikkiga toj ila avrang qoni?!
Qani Jamshidu Faridun, oxir?!
Birini qo'ydimu gardun, oxir?!
Ne Kayoniy boru ne Sosoniy,
Ne Skandar dog'i ne Ashkoniy...
To falak bildi taaddi fanini,*

Qaysidin olmadi o‘z berganini!
Kim yana qilmadi tufroqqa past,
Kimga berdi Quyosh avjida nashast?!
Chu bu ma‘ni bu sifat topti ravo,
Kim ne shah qolg‘usi baqo, ne gado.
Mulku kishvar eliga dod ayla,
Adl ila ikkisin obod ayla.
Tengri yodi chu sanga bo‘ldi hisor,
Dod ila adl ulus birla shior.
Chu bular bo‘ldi, o‘zungni xush tut,
Har bahona bila ko‘nglungni ovut...
Elga sendin chu yetar osoyish,
Tengirdin ayla tama baxshoyish...

O‘tgan podoshohlar taqdirini eslatish orqali, adolat va yaxshilikka targ‘ib, hayot qonunlarining shafqatsizligidan ibratli xulosa chiqarishga tashviq Hofiz soqiynomasida ham mavjud. Lekin Hofizda umumga yo‘naltirilgan tasvir tarzidagi bu usul Navoiyda aniq shaxsga – zamon hukmroni Husayn Boyqaroga qaratilgan murojaat sifatida ko‘rinadi.

Soqiynomaning muhim fazilatlaridan biri unda Navoiyning bevosita o‘z hayoti va zamonasiga doir ayrim qaydlari hamda ishoralarning aks etganligidadir. Garchi bu asarda Navoiy hayotining to‘liq ko‘rinishi yaratilmagan bo‘lsa ham (bunday vazifa qo‘yilgan ham emas), biroq shoir hayot yo‘lining ayrim dramatik holatlari nihoyatda yorqin aks etgan. Shu jihatdan ishq (XXVIII band) hamda vafo (XXIX band) haqidagi qismlar nihoyatda xarakterlidir. XXVIII band murakkab hayot girdobiga tushgan baxtsiz oshiqning fojiali muhabbati haqidagi o‘kinch to‘la xotiroti – qo‘shig‘i deyish mumkin. Keyingi bandda esa shoir hayotining murakkab nuqtalari uning o‘z davri va davr ahli haqidagi xulosalari fonida umumlashgan holda namoyon bo‘ladi. Bu band o‘zining umumlashtirish xususiyati yetukligi bilan “Mahbubu-l-qulub”ning debochasidagi (“Gahi topdim falakdin notavonlik”) mashhur she‘rga hamohangdir:

Soqiyo, ko‘nglim etar boda havas,
Lutf qilg‘ilki, erurman bekas...
Kim jahon ichra base sayr ettim,
Dayri behadg‘a dog‘i ko‘p yettim.
Gah tushub hayli munojot ichra,
Gah qolib ahli xarobot ichra.

*Qavm-qavm ichra ko'rub mehnatlar,
 Xayl-xayl ichra chekib shiddatlar.
 Yuzlanib shavkatu, johu iqbol,
 Qismatim bo'ldi base mansabu mol.
 Harna el qildi talab – men topdim,
 Barchadin silkib etak, ko'z yopdim.
 Ulcha men topqali bor erdi havas,
 Kim topilmadi – vafo erdiyu bas.
 Bir vafo kimgaki men qildim fosh,
 Yuz jafo o'truda erdi podosh.
 Ko'z aning yo'lig'akim yetkurdum,
 Ko'zda yuz nesh balosin ko'rdum.*

Soqiynoma shoir fikr va g'oyalarining yorqin ifoda qilinishini ta'min etgan o'ziga xos uslubga ega. Asarning uslubi uning mazmuni talablari asosida shakllangan bo'lib, har bir band uning mohiyati bilan chambarchas bog'langan tasviriy vositalarga ega (poetik vositalar ham, leksik qatlam va boshqalar).

Shu bilan birga asarning barcha qismlari uchun xos poetik usullar ham mavjud bo'lib, bunday usullar turli holatlarda ishlatilgan. Jumladan, shoir har bir bandni uning mundarijasiga diqqatni tortadigan imo-ishoralar bilan (barooti istehlol san'ati) boshlaydi va o'quvchi fikrini bosqichma-bosqich asosiy masalaning tub mohiyatiga olib kiradi. Masalan, Suhayliy haqidagi bandni “Soqiyo, jom ketur daryovash”, Pahlavon Mahmudga atalgan bo'limni “Soqiyo, pahlaviy oyin may tut” deb boshlaydi. Bunday xususiyat deyarli barcha bandlar uchun xosdir. Hatto, ayrim o'rinlarda tasvir nihoyatda yuksak darajaga ko'tarilgan bo'lib, muammo darajasiga yetib qolgan. Baddiuzamon haqidagi band bunga yorqin misol bo'la oladi:

*Shohi jamqadr zamon ichra bade',
 Har bade' ishda makon ichra rafe'.*

So'qiynoma uslubi uchun xos xususiyatlardan yana biri shoir o'zining turli masalalarga munosabatini to'g'ridan-to'g'ri xulosa emas, balki xilma-xil tarixiy, hayotiy voqea-hodisalarni dalil sifatida keltirish orqali ifoda qilishidir (talmeh). Bunday xususiyat Hofiz asarida ham mavjud. Lekin Navoiy soqiynomasi bu jihatdan Jomiy masnaviysiga yaqin turadi (Chingiz, Temurlarning nomi keltirilishi). Shuningdek, “Xamsa”dagi tarixiy shaxslar obrazi bu asarda ham yangicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Xullas, soqiynomaning har bir bandi ma'lum ma'noda

mustaqil asar bo‘lib, ular umumiy ruh va uslub jihatidan bir-biri bilan bog‘langan holda yaxlit bir asarni vujudga keltiradi.

Soqiynomaning ahamiyati, eng avvalo, Navoiy hayoti va ijodiy yo‘lining aytim muhim o‘rinlarini, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan davlat va madaniyat arboblari munosabatini, qolaversa, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining ba‘zi jihatlarini o‘ziga xos yo‘sinda izohlab berishi bilan belgilanadi. Ikkinchi tomondan, bu asar tarkibidagi ba‘zi bir ma’lumot va ishoralar, Navoiyning yirik asarlarida badiiy umumlashma tarzida qo‘yilgan ayrim masalalarning haqiqiy yo‘nalishi, shoir fikrlarining haqiqiy mohiyatini to‘g‘ri payqab olish, ularning rivojlanish jarayonini kuzatish uchun imkoniyat yaratadi (jumladan, Baddiuzamonga bag‘ishlangan qism Navoiy “Xamsa”sidagi ayrim o‘rinlarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi).

Xullas, o‘z mohiyati va badiiy uslubi bilan o‘ziga hos bo‘lgan soqiynoma Alisher Navoiy ijtimoiy, estetik qarashlarining ba‘zi qirralari, o‘z davri va zamondoshlari haqida mulohazalarining poetik sintezidan iborat bo‘lib, “Mahbubu-l-qulub”, “Majolisu-n-nafois” kabi asarlari bilan yonma-yon qo‘yilganda, umuman, Navoiy ijodiy dahosining yaxlit manzarasini yaratish uchun xizmat qiladi.

Navoiyning bu masnaviysi turkiy tildagi soqiynomaning birinchi yetuk yeamunasi bo‘lib, o‘z mohiyati bilan shu janr taraqqiyotining yangi va yuksak bosqichi hisoblanadi.

Bu janrda ham Navoiyning janr qonuniyatlariga ijodiy munosabati yaqqol namoyon bo‘lgan. Shoir janrning asosiy belgilarini saqlagan holda, uning imkoniyat doirasini yanada kengaytirgan: hayot bo‘lgan bir qator shaxslar ham tilga olingan. O‘zining shaxsiy turmushi bilan bog‘liq ayrim detallar ham shahzodalarga qaratilgan pandu nasihatlarining kiritilishi janrning ijtimoiy ahamiyatini yanada orttirgan. Natijada asar soqiynoma janrining original namunasi bo‘lib qolgan.

Navoiy ijodida lirik janrlarning ichki dinamikasi uning badiiy kanon va adabiy an‘analarga bo‘lgan ijodiy munosabati bilan izohlanadi.

Ma’lumki, Navoiyga qadar bo‘lgan o‘zbek lirikasida barcha janrlar to‘liq shakllanmagan edi. G‘azal, qasida, masnaviy, tuyuqlarning esa o‘z kanoni mavjud edi. Shuning uchun Navoiy lirikadagi ijodiy izlanishlari jarayonida faqat turkiy she’riyat an‘analarinigina emas, balki barcha janrlar sohasida tugal kanoniylikka ko‘tarilgan fors-tojik she’riyati qonuniyatlarini ham nazarda tutishi lozim edi. Umumiy xulosa shundan iboratki, Navoiy janrlar masalasida mavjud kanonga munosabati mutlaqo ijodiy va ayrim masalalarda tanqidiy xarakterga ega (“Badoeu-l-bidoya” debochasi). Navoiy uchun har bir janrning tayyor modeli umuman o‘zgarmas hodisa emas. U janr tarkibiga xos umumiy yoki asosiy belgilardan eng muhimlarini – g‘oyaning badiiy inkushofini uchun monelik qilmaydiganlarini saqlab qolgani holda asar tarkibiga yangiliklar olib kiradi. Natijada janrlarning mavjud qoidalari Navoiy uchun qat’iy chegara emas, balki yanada

yuksaklikka parvoz qilish maydoni hisoblanadi. Shuning uchun ham Navoiy gʻazal, soqiynoma kabi janrlarning yangicha, mukammal modelini yaratdi. Shuningdek, oʻzbek adabiyotida boshlangʻich davrlarda boʻlgan ayrim janrlar rivojlantirildi va ular ichki tugallikka erishdi.

I. Navoiyning janr tarkibi va umuman adabiy kanonga munosabati, birinchi navbatda, ularning mohiyati bilan bogʻlangan. Navoiy janrlarning tematik-gʻoyaviy mohiyatini yuqori darajaga koʻtardi: lirikaga falsafiy-didaktik, ijtimoiy-siyosiy masalalarni olib kirdi. Natijada:

a) janr masalalarini zamona bilan bogʻladi va uning asarlari maʼlum maʼnoda zamonaviylik kasb etdi;

b) shoirning oʻaxsi uning lirik asarlarida oldingi davr shoirlariga nisbatan yorqinroq namoyon boʻldi. Xususan, gʻazal, qitʼa, soqiynomalarda yakka holdagi kechinmalar yorqinroq koʻrina boshladi.

II. Navoiy asarning kompozitsion qurilishiga alohida ahamiyat berdi (“Badoeu-l-bidoya” debochasi). Bu masalaga u asar asosida yotgan hayotiy yoki maʼnaviy asosning – poetik materialning xarakteri bilan uzviy bogʻliq holda qaradi. Bu esa Navoiyning estetik qarashlari bilan, xususan, uning goʻzallik va uygʻunlik haqidagi qarashlari bilan bogʻlangan (bu sohada u Aristotelga yaqin turadi).

III. Navoiy lirik janrlarning tasvir qonuniyatlarini kengaytirdi. Ulardan asosiylari: tavsifiylik, tasviriylik va mulohaza-munozara koʻrinishi. Koʻp oʻrinlarda ularning oʻzaro qurilishi aralash turlarning yuzaga kelishiga sababchi boʻladi.

IV. Tasviriy xarakter, xususan, Navoiy gʻazallari uchun xarakterli boʻlib, gʻazalchilikda Navoiygacha boʻlgan gʻazal anʼanalaridan tubdan farq qiluvchi bir qator xususiyatlarning yuzaga kelishiga asos boʻldi. Ana shulardan eng muhimi gʻazalda voqeabandlik hisoblanadi.

V. Lirikaga poetik syujetning kirib kelishi unda bir qator yangi belgi va xususiyatlarning paydo boʻlishiga olib keldi. Ana shulardan biri sababiyat hisoblanadi.

Navoiy lirikasida sababiyat elementlari va mantiqning boshqa toifalari ham mavjud.

VI. Navoiy lirikasida vujudga kelgan mazkur xususiyatlar lirik janrlarning semantik strukturasi oʻzgarishlar yasadi va hissiy, fikriy (umumlashtiruvchi) holatlarning oʻzaro munosabatida yangi koʻrinishlar yuzaga kelishiga olib keladi.

VII. Navoiy lirikasida ruhiy holatlarning yangi koʻrinishlari yuzaga keldi.

VIII. Navoiyning lirik janrlari oʻzbek sheʼriyatiga yangi yoki kam ishlatilgan vaznlarning kirib kelishiga vosita boʻldi. Birinchi marta Navoiy ijodiyotida oʻzbek aruzi oʻzining ham nazariy asoslarini ham toʻliq tatbiqini (barcha rang-barangligi bilan) topdi.

IX. Har bir janr uchun (undagi asarlarning rang-barangligiga qaramay) inson kechinmalarining muayyan tomonlarini ifodalash mansub. Binobarin, tasviriy imkoniyatlar ham ularning har birida oʻziga xos jihatlarga ega. Shu boisdan navoiy ijodida badiiy tasvir

vositalarining (poetik material, badiiy san’atlar va hokazo) janrlar bo’yicha o’ziga xos farqlanishlari mavjud (masalan, qit’a, soqiynoma, g’azal, tarjiband).

Yuqoridagi mulohazalar lirik janrlarning ichki o’sish jarayonini ko’rsatadi.

Demak, Navoiy lirikasi Sharq lirikasi tarixida (faqat janrlar yuzasidan olib qaraganda ham) mutlaqo yangi va yuqori bosqich hisoblanadi. Binobarin, O’rta asr Sharq adabiyoti haqidagi umumiy hukm chiqargan paytda faqat Hofiz yoki bir nechta arab va fors shoirlari merosiga tayanishning o’zi yetarli emas. Bu atamaning ma’nosini chegaralash (izoh bilan), yoki bo’lmasa turkiy she’riyatning yuqori cho’qqisigina emas, ayni zamonda Sharq she’riyatining ulkan yutug’i bo’lmish Navoiy lirikasini nazarda tutmoq lozim.

Ikkinchi bob. NAVOIY SOQIYNOMALARINING MAVZUIY TASNIFI VA BADIY XUSUSIYATLARI

2.1. Navoiy soqiynomasining mavzuiy tasnifi

Avval ta’kidlaganimizdek Navoiy “Soqiynoma”si 32 band (bo’lim)dan iborat. Bu bo’limlarning har biri mustaqil mazmunga ega. Tabiiyki, bu hol ularning mavzui ham ma’lum ma’noda mustaqil. Lekin bu mustaqillik nisbiydir. Chunki ularni umumlashtiruvchi bir ob’ekt bor, bu soqiy obrazidir. Har bir bo’lim soqiyga murojaat bilan boshlanadi. Bu esa asarning tasavvufiy asosga ega ekanini ko’rsatadi.

Xo’sh, soqiy kim? Manbalarda ta’kidlanishicha, soqiy – ma’rifat, haqiqat bodasini ulashuvchi. Ba’zan soqiydan murod Kavсарdir, u goho murshidga ham nisbat beriladi. Navoiy yozadi:

*Tut, ey soqiy, manga bir mayki, aning nash’asi yetkach,
Ko’ngul behol bo’lg’ay, jong’a har dam o’zga hol o’lg’ay²².*

Soqiy barcha mavjudotga fayz beruvchi, sarxushlik ulashuvchi manbadir. Bashqa bir manbada: “Soqiy Xudodirki, oshiq'larga haqiqat mayini ichiradi va ularni mahvu foniy qiladi” deyiladi. Bu so’z (soqiy) istiora yo’li bilan “murshidi komil”ni anglatadi. Soqiy biror qavm yo qabilaning diniy rahbari va oshiq'lar yuzidan ma’naviy husn sharobini ichadigan ma’shuqdir. Shuningdek, soqiy timsolida ba’zan shoh siymosi ham tushuniladi. Umuman, soqiyni e’tiqod timsoli sifatida ham izohlash mumkin.

²² Navоий, Алишер. Фавоийду-л-кибар. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, IV ж. – Тошкент: Ф.Фулум, 2011. – Б. 586.

Soqiynomada, albatta soqiy yonida jom haqida ham fikr yuritiladi. Jom azaldan manbalarda quyidagicha tavsiflanadi:

Jom – qadah. Orifning ma’rifat bodasiga to‘la dili va ahvoli. Ba’zilar jom – badan, jism badanni tozalovchi, soflovchidir, deydilar. Zotan, komil orif ilohiy boda jomidan ichadi va tavhiddan sarmast bo‘ladi. Sog‘ar, surohi va mino atamalari ham orif qalbini anglatadi. Qalb – xumxona, mayxona va maykada iboralari bilan ham ta’bir qilinadi. Mastlik deganda, ishqning chulg‘ab olishi, botiniy va zohiriy sifatlar, ma’rifat sarxushligiga g‘arq bo‘lish nazarda tutiladi. Navoiy yozadi:

Dayr aro hush ahli rasvo bo‘lg‘ali, ey mug‘bacha,

*Jomi may tutsang, meni devonadin qil ibtido*²³.

Shuningdek, mayni qoniqish, xushnudlik manbai sifatida ham izohlash o‘rinlidir.

Shunday qilib, soqiynomaning mavzulari haqida fikr yuritiladigan bo‘lsa, ularning umumiy mavzui va har bir bo‘limga xos mavzularini ajratmoq lozim. Umumiy mavzu tasavvufiy materiallardan foydalanib, shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, huquq va burchlarini anglashning ijtimoiy zarurat ekanini ta’kidlashdan kelib chiqadi. Binobarin, har kimning jamiyatda o‘z qobiliyat, iste’dod va intilishlaridan kelib chiqib egallagan maqomi bor. Bu maqom ma’naviy qiyofa takomili bilan topiladi. Ana shu maqom shaxsning o‘rnini belgilaydi. Kimdir soqiy, kimdir mug‘bacha, kimdir devona va h. Kimningdir kimgadir yo‘l ko‘rsatishi, hidoyatga boshlashi, qanoat dargohiga yetkazishi va oxir-oqibat baxtiyor qilishi tasavvufiy asarlarning ko‘pchiligida uchraydigan mavzu.

Endi soqiynoma tarkibidagi har bir band mavzui borasida shuni aytish lozimki, ular bir vaqtda yaratilmagan. Shuningdek, uning yaratilish uzoq davr ham cho‘zilmagan. Shuning uchun ham mavjud 32 bo‘limning mavzui bir-biriga nihoyatda yaqindir. Birinchi bo‘limda inson va olam, inson va jamiyat munosabatlari haqida fikr yuritiladi. Bunda insonning koinot gavhari, aziz va mukarram zot ekani ta’kidlanadi. Inson koinot, tabiat oldida mas’ul, shuningdek ularga tobe degan tushunchalar soqiynomaning avvalida nazmga tortiladi. Undan so‘ng insonning tabiiy hurligiga hech kimning tajovuz qilishga, ya’ni inson huquqlarining inson tomonidan poymol etilishiga yo‘l qo‘yilmasligi g‘oyasi tarannum etiladi. Bu masalada shohning o‘rni beqiyos darajada yuksak. Chunki u insonlar o‘rtasidagi adolatga posbon. Shoh xuddi mana shu vazifani bajargani uchun ham sharaflarga loyiq. Lekin shohlar orasida o‘z vazifasini mas’uliyat bilan ado etganlari ko‘proq sharaf topadi. Boshqa shohlar esa o‘z-o‘zidan ko‘proq sharaf topgan shohga tobe bo‘ladi.

²³ Navoiy, Алишер. Фаройибу-с-сиғар. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, I ж. – Тошкент: Ф.Фуллом, 2011. – Б. 6.

Navoiy soqiyomasining birinchi bo‘limi xuddi shu mavzuda bo‘lib shohga ularni uqtirish, va’z aytish mazmuniga ega:

*Bo‘lsa chun bazmda xud Jamshidi zamon,
Taxti zarkor uza xurshid makon.*

*Tobi‘i roy ila hukmi xonlar,
Amri ma‘muri bo‘lub sultonlar.*

*Taxti oliy bu biyik toramdin,
Xayli ko‘prak bu qalin anjumdin...*

*Shukr angakim, qilibon shoh seni,
Qildi har nuqtadin ogoh seni.*

*Ko‘rki, har shahki, yurub oldi jahon,
Barcha bordur qaro yerda nihon.*

*Ham Kayumars ila Hushang qani,
Ikkiga toj ila avrang qani?*

*Qani Jamshidu Faridun oxir,
Birini qo‘ydimu gardun oxir?*

*Ne Kayoni boru ne Sosoniy,
Ne Skandar, dog‘i ne Ashkoniy.*

*Qolmadi Rustam ila Som dog‘i,
Yazdijurd o‘titiyu Bahrom dog‘i.*

*Qani xonlar xoni Chingizxon,
O‘qdoy qaniki, erdi qoon.*

*Qani Temur – shahi islompanoh,
Ki jahon oldi, chekib xayla sipoh.*

Jaddu obo sanga avlod qani?

Og'a-ini sanga ahfod qani?..

Chu bular bo'ldi, o'zingni xush tut,

Har bahona bila ko'nglungni ovut.

Bir nafas ayshdin o'lma g'ofil,

Ki jahon mulki erur behosil.

Bo'lmag'il hech nafas g'aflat ila,

Adl qil, yo'q esa bo'l ishrat ila...

Ikkinchi bo'lim hayot vasfida. Binobarin, bo'lim mavzui hayotni sevishga, undan mamnun bo'lishga chaqiriqdir. Bunda, albatta, jom tavsifi yordamga keladi, jom va may tavsif qilinadi.

Uchinchi bandda sadoqat mavzui yoritiladi. Shoirning lirik qahramoni o'z hukmdoriga sadoqat bilan xizmat qilishga intiladi. Avval ta'kidlanganidek, soqiynomaning qahramonlari real shaxslar. Jumladan, shoh ham real, konkretlashtirilgan ideal. U – Husayn Boyqaro. U xalqni tinch, osoyishta hayot bilan ta'minlaydi. Shuning uchun ham uning nomi xalq uchun navobaxshlik kasb etadi:

Elga sendin chu yetar osoyish,

Tengridin ayla tama' baxshoyish.

Mutribo, sen dog'i ohange tuz

Lahnida rangi Husayni ko'rguz.

Ham Husayniy so'zidin rangi g'arib,

Ham G'aribiy damidin bayti ajib...

To'rtinchi band mavzui pok qalb, axloqiy komillik, bir so'z bilan aytganda estetik ideal masalasidir. Shoir nuqtai nazariga ko'ra, jamiyatda shoh – birinchi shaxs. Fuqarolar undan tarbiya oladilar, uning fazilatlarini o'zlashtiradilar. Bunda shohdan talab uning “koni latofat”, “qurratul-ayni xilofat” bo'lmog'idir.

Beshinchi banddan boshlab jamiyatda o'z bilim, ijod va fidoiyligi bilan yuksak martabalarga erishgan zotlar vasfiga kirishiladi. “Majolisu-n-nafois”da zikri kelgan, unda

ta'kidlanishicha shoirga farzandlik nisbati bo'lgan, ya'ni Navoiy qo'lida tarbiya topgan jiyani shoir Mir Haydar Sabuhiy ana shunday zotlardan biridir²⁴. Uning xulqi go'zal, har bir qilgan harakati maqtovg'a loyiq.

*Ulki Haydar otidur, xulqi hasan,
Har nekim qilsa, bari mustahsan.*

*To abad hashmatidin topsun kom,
Mulki islomda ahli islom.*

Haydar kabi shaxslar bilan zamondosh bo'lish, ular bilan birga hayot kechirish lazzatlidir.

Oltinchi badda Abulmuhsinning adabi vasf qilinadi. Shoirning ta'kidlashicha, inson adab bilan mukarramdir. Bu mavzu bandning boshlanishidayoq uqtiriladi:

*Soqiyo, jomi labo-lab tutqil,
Adab asrayu muaddab tutqil.*

Uttinchi badda jom va may tamsillarining mohiyati ochiladi. Hayot zavq-shavqi, yashash ishtiyoqi inson martabasini oshirishda muhim omil sifatida qayd etiladi. Hamma narsaga yarishgan shoh ham bu ishtiyoqni tark etmasligi kerak. Bu yo'lda unga omad tilanadi:

*Jomi to hashr labo-lab bo'lsin,
Necha sipqarsa, yano ham to'lsin.*

Sakkizinchi bo'limda bu g'oya yanada chuqurlashtiriladi. To'qqizinchi badda Husayn Ibrohim vasfi boshqa ma'no-mazmunlarga ustunlik qiladi:

*Aqli har ishta raso, tab'i salim,
Kim erur naqdi Husayn Ibrohim.*

*Mulk aning adlidan o'lsin bo'ston,
Bir hadi kishvarining Hindiston.*

²⁴ Navoiy, Алишер. Мажолису-н-нафоис. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, IX ж. – Тошкент: Ф.Ғулум, 2011. – Б. 396 – 397.

O'ninchi bandda yana shoh vasfiga, o'n birinchi band Husaynning o'g'illaridan biri tavsifiga bag'ishlanadi:

*To ani ichgali ko'rguzsa havas,
Saltanat bog'ida sarvi navras.*

*Ham aning bazmig'a loyiq bo'lg'ay,
Pok tab'ig'a muvofiq bo'lg'ay.*

*Shahg'a maqbul, dog'i mulkka zayn,
So'zi matbu' o'zidek ibn Husayn.*

O'n ikkinchi bo'limda ham shahzodalardan biri tavsif etilib, uning haqiga duo qilinadi:

*To beray, ko'nglum o'lub gulshanvor,
Ko'zga shahzoda yuzidin anvor...*

*Chun so'zi xushtor, o'zi xushharakot,
To abad bo'lsun anga umru hayot.*

O'n uchinchi bandda shoir o'ziga yaqin bo'lgan ikki kishining g'urbatga ketgan, o'z xalqi va Vatanidan ayri tushgan kishilarga hayot qanchalar azob ekani haqida fikr yuritiladi. Binobarin Vatan va xalq qadrini ulug'lash bu bandning asosiy mavzusiga aylanadi:

*O'zga mulk, o'zga diyor, o'zga daman,
O'zga xalq, o'zga makon, o'zga vatan.*

*Tush ko'rarlarmu ekin shohni hech,
Vatanu maskanu bungohni hech.*

*Ikkisi yodi bila bir qo'sh tut-
Ki, ko'ngildin manga bo'lmaslar unut.*

*Himmatin kosh baron tutqay shoh,
Kelgali ul ikov inshoolloh.*

O‘n to‘rtinchi bandda o‘sha g‘urbatdagi ikki kishiga sog‘inch tuyg‘usi ifodalanib, mehrshafqat, oqibat va rahm kabi fazilatlar ulug‘lanadi. O‘n besh va o‘n oltinchi bandlarda yana shoh va shahzodalar vasfi keltiriladi:

*Bo‘lsun chun boda uchun bazmoro
Sulton Vays ibni Boyqaro.*

*Anga hangomai shavqimni ayt,
Dog‘i she‘rimdin o‘qug‘il bir bayt.*

*Bo‘lsun uchmoq aro Haqdin mag‘fur,
Atosi Boyqaro ibn Mansur. (15)*

*Jomi Jam hay‘atin mazhari ul,
Balki oyinai Iskandari ul. (16)*

O‘n yettinchi bandda Mironshoh avlodidan bo‘lgan shahzodalardan birining vafotidan izzat va tuyg‘ulari ifodalanadi:

*Qaro tufroqqa nachuk qildi nihon,
Ki qarordi manga hajrida jahon.*

*Qani ul mehri jahontob oxir!
Qani ul gavhari noyob oxir.*

*Charxdin ko‘p kishi ko‘rdi bedod,
Bo‘yla bedod kishi ko‘rmas yod. (17)*

O‘n sakkizinchi bo‘lim yaxshilik bobida. Yaxshilik kishi tanlamaydi, yaxshilik qilish uchun ob‘ekt tanlanishi ham nojoiz. Yaxshilikni shoh ham, gado ham qilishi mumkin yoki shohga ham, gadoga ham yaxshilik qilinishi mumkin. Yaxshilik kimdan zohir bo‘lishi ham, kimda namoyon bo‘lishi ham go‘zal:

*Shukrkim, behad erur yaxshilig‘ing,
Andin ortiq dog‘i yaxshi qilig‘ing.*

*Hojat ermas sanga bu yanglig' pand
Kim sanga pand elidur hojatmand.*

*Ham bu yanglig'ki, shior aylabsen,
Xalqni xulqungga zor aylabsen.
Tengri qilsun senga tavfiq rafiq,
Ham qilur ishta rafiqing tavfiq.*

*Shahg'a sensen chu rafiqi joni,
Bir-biringizga bo'lung arzoni.*

O'n to'qqizinchi bo'limning mavzusi inson martabasini ulug'lashdir. Inson kim bo'lishidan qat'i nazar ulug'. Unga xizmat qilgan murodiga yetadi. Agar shoh darvishlar ahvolidan ogoh bo'lsa, raiyat – xalq ahvolidan ogoh bo'ladi. Xalq ahvolidan ogoh bo'lish uning turmushini taraqqiy qildirish uchun xizmat qilishdan iborat:

*Tut angakim, ishi bo'ldi tamkin,
Oti Sulton, o'zi darvish oyin.*

*Qildi bu shohni taqdir sanga,
Ham shahu ham ato, ham pir sanga.*

*Otoyu piring erur shohi zamon,
Og'oyu qardoshu maxduming xon.*

*Ikkisi xidmatidin xushhol o'l,
Tengriga elt bu xidmat bila yo'l.*

Yigirmanchi bo'lim Mo'min mirzo vafida:

*Seni Haq ayladi chun gavhari pok,
Poklar suhbatidin aylama bok.*

Poklar hodiyyi rohing bo'lsun,

Qodiri pok panohing bo'lsun.

*Boda kufri sari bo'lma mudmin,
Haq o'ldi laqabing Mo'min.*

Yigirma birinchi bandda Vafoiy, Mirzobek va Mir Darvish kabi ijodkorlar sifatleri va ulardan uzoqlik iztiroblari qalamga olingan:

*Chun Vafoyi bila bo'ldi mashhur,
Aylasun umri vafo birla zuhur.*

*Kim vafo sog'aridin olsang kom,
Ich, vafo ahlini yod aylab, jom.*

*Andakim, hajr kumaytin surdum,
Bir-iki yor sanga topshurdum.*

*Ul biri oti chun mazkur bo'lub,
Mirzobek ila mashhur bo'lub.*

*Bu biri ismini aylardi xitob,
Mir Darvesh debon shayx ila shob.*

Yigirma ikkinchi bo'lim yana Mir Haydar Suhayliyga bag'ishlangan. Lekin bu avvalgi zikrdan keskin farq qiladi. Bunda Mir Haydarning vafoti (o'ldirilishi) tufayli boshga tushgan motam qayg'us aks etadi. Zotan, inson uchun o'z yaqinlarini yo'qotish hamma vaqt ham iztirobli. Shuning uchun ham inson insonni tirikligida qadrlashi, ardoqlashi lozim:

*Kim Suhayliy saridur zor ko'ngul,
Ko'p tilar suhbatin afgor ko'ngul.*

Yigirma uchinchi band Navoiy davri ijodkorlaridan biri Tufayliy ta'rifida:

*To Tufayliy bila majlis qurayin,
Bir necha nuqta anga yetkurayin.*

*She'r bahri aro g'avvosi shigarf,
Durri maknun so'zidin har bir harf.*

*Anvariyo bo'lsinu Xoqoniy,
Faryobiy yo Isfahoniy.*

*Angakim, xoma guharboy o'lg'ay,
Hayykim, buxl ila bekor o'lg'ay.*

Yigirma to'rtinchi bo'lim Bayoniyga murojaat. Bunda shoir har qanday kishi uchun tarbiya o'zini tuzatishdan boshlanishi g'oyasi ilgari suriladi. Kishi hech qachon o'ziga nisbatan hurmat va e'tiborni boshqalardan talab qilib, majburlab hosil qila olmaydi:

*Ey Bayoniy, bil o'z o'lingda ayon,
Nuqtakim, aylagum o'lingda bayon.*

*Meni xush tut demak ermas dilkash,
Bir nafas bori o'zungni tut xush.*

Yigirma beshinchi bo'lim orifi Jom – Abdurahmon Jomiy vafida. Shoir bu soqiy nomda Jomiyga bo'lgan muhabbati va ehtiromini, shuningdek ularning tug'ilish sabablarini qayd etadi. Shuningdek undan uzoq tushsa, sog'in chiday olmasligini ta'kidlaydi:

*Vafida desa xirad fazlu funun,
Aqli kul vafiy degay sar'u junun.*

*Arsh urfonida bir past maqom,
Mast jomi azali orifi Jom.*

*Sihr tasnif aro surmay qalami,
Ki mening otima chekmay raqami.*

*Xomasin qayda qilib nuktafishon,
Qo'yibon mendin ham anda nishon.*

*Xoslig' na'tini zotimg'a chekib,
Yorlig' vasfini oting'a chekib.*

*Charx bu mehrin aylab g'orib,
Mehrsizlig'din ichimni yorib.*

*Sabru toqat nechakim ko'rguzayin,
Bo'yla furqatqa ne yanglig' tuzayin.*

Yigirma oltinchi band Navoiy hayoti va ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatgan shayxlardan biri Sayyid Hasan Ardasher motami ta'sirida yaratilgan:

*Rindlar bazmig'acha kom chekay,
Ul xarobot elidin jom chekay.*

*Laqabi Sayyid o'lub, oti Hasan,
Laqabi yanglig' oti mustahsan.*

*Ani ham charxi muxolifpesha,
Gardishi davri xilofandesha.*

*Berdi yo'l ravzai jannat sari,
Men tushub do'zaxi furqat sari.*

*Topa olmon meni oshuftamijoz
Bodadin o'zga bu dardimg'a iloj.*

Yigirma yettinchi bo'lim Pahlavon Muhammad vafoti munosabati bilan yozilgan:

*Soqiyo, pahlaviyoyin may tut,
Pahlaviy lahn ila ko'nglumni ovut.*

*Pahlavonona ketur sog'ari jarf,
Quyubon maydin anga bahri shigarf.*

*Quvvat ichra anga o'n pilcha zo'r,
Xokvashlig' aro yuz onchaki mo'r.*

*Har bag'ir yorasining marhami ul,
Qirq yilliq bu gado hamdami ul.*

*Maxfiy asrorda damsoz manga,
Har nihon rozda hamroz manga.*

*Bori hamdamlar ichinda fardim,
Yorimu, hamnafasu hamdardim.*

*Oni ham charxi taaddioyin,
Mendin oyirdi, kulib qasdima kin.*

Adabiyotshunosligimizda jome'u-l-kalom degan tushuncha bor. Unga ko'ra, badiiy asarda muallif o'z muhabbatiga, xizmatlariga yarasha javob topolmaganidan zorlanadi. Yigirma sakkizinchi bo'lim xuddi shunday jome'u-l-kalom soqiynomadir:

*Soqiyo, kel menga tut bodai ishq,
Kim erur xilqatim aftodai ishq.*

*Bodakim, og'zig'a har kim olg'ay,
Paykari xirmonig'a o't solg'ay.*

*Tokim, ul o'tqa o'zumni toshlay,
Dardi ishqim o'tidin so'z boshlay.*

*Charx yog'durdi manga tig'i sitam,
Balki davron hamu davron eli ham.*

*Kimki yorim edi tavri ahsan,
Bo'ldi jonimg'a qatiroq dushman.*

O'zu yot neshi malolat urdi,

Eru ko 'k boshima tosh yog 'durdi.

*Aqrabo tanga urub tig 'i jafo,
Ko 'zuma ignalar urdi zuafo.*

*Kechibon boshtin, ayog 'din tushtum,
O 'lgali zaef ichida yovushtum.*

*Dardu ranjim haddu g 'oyatdin ko 'p,
Marazim bo 'ldi nihoyatdin ko 'p.*

*Mingdin ortuq manga tobi ' bila xayl,
Biri imdodima ko 'rguzmadi mayl.*

*Ulki, ishqida malolim bu bo 'lub,
Shiddati hajrida holim bu bo 'lub.*

*O 'tti bu zorlig 'img 'a ikki yil,
Har zamonin ikki yil chog 'lig ' bil.*

*Kinga bu nav ' balo bo 'lsa nasib,
Mast xushroqdurur ul zori g 'arib. (28)*

Yigirma to'qqizinchi bandda bu g'oyalar yanada chuqurlashtiriladi:

*Yuzlanib shavkatu, johu iqbol,
Qismatim bo 'ldi base mansabu mol.*

*Har ne qildi talab, men toptim,
Barchadin silkib etak, ko 'z yoptim.*

*Ulcha men topqali bor erdi havas,
Kim topilmadi vafo erdiyu bas.*

Bir vafo kimgaki, men qildim fosh,

Yuz jafo o'truda erdi podosh.

*Ko'z aning yo'lig'akim, yetkurdum,
Ko'zda yuz nesh balosin ko'rdum.*

*Qaysining ollidakim, qo'ydum bosh,
Yog'di boshimg'a jafosidin tosh.*

*Bir vafo ahli agar dahrda yo'q,
Dashtu vodi eliyu shahrda yo'q...*

O'ttizinchi va o'ttiz birinchi bandlarda shoir o'z do'stlari, yaqinlarini eslaydi. Albatta, bunda avval vafot etganlar, keyin hayotlari zikr etiladi:

*Soqiyo, do'stlug'e ko'rguzgil,
Do'stona qadahe yetkuzgil.*

*Kim kirar do'stlarim yoding'a,
O't solur xotiri noshoding'a.*

*CHektilar barcha jamol uzra niqob,
O'ylakim mehr jamolig'a sahob.*

*Birisi piri Muammoyi edi
Kim Haram bodiyapaymoyi edi.*

*Yana bir nag'mazani sohibi hol,
Ham aning hamqadami Xoja Kamol.*

*Mir Sadr o'zni tutib ahli vifoq,
Lek ko'p erdi Badiiyda nifoq.*

*Yor Tanbal edi sofu beg'ash,
Zoti xush, hay'ati xush, nuqtasi xush.*

*Yana bir olimi Sabzavoriy edi,
Kim maoniy durri guftori edi.*

*Har bir o'z tavridda beshibhu nazir,
Bordilar barcha – ne aylar tadbir.*

*Bo 'layin yodlari birlan mast,
Yana to kimsaga bo 'lmay pobast. (30)*

*Kim agar bordilar andoq ashob,
Yana jam 'i ham erurlar ahhob.*

*Birisi Mir Atoyi yanglig',
Biri darvish Fanoyi yanglig'.*

*Ul biri ilm sipehri uza mehr,
Bu biri fazl quyoshig 'a sipehr.*

*Ixtiyor ulki, erur nozik tab',
Lutf maydoni aro chobuk tab'.*

*Osafiy ulki, ne nazm etsa raqam,
Qiymati mulki Sulaymondur kam.*

*Yana bir keldi Binoiyki, funun
Kasbida aylamadi man 'i junun.*

*Yana bir dardu g'amim ogohi,
Hamdamim, yor Ziyoratgohiy.*

*Yana bir Mashhadiy – ul dahrda toq,
Pok tahriru karimul axloq.*

*Biri Shafi 'iydur ul pok sifot,
Kim muammoda chiqarmishdur ot.*

*Birisi shoribi jomi tahqiq,
Munisu rahbaru g'amxori rafiq.*

*Yana devonai Kotibiy, xayol
Tushsa, har g'amg'a qilur daf'i malol.*

*Yana ham bir nechadurlarki, Alloh
Lutf ila barchadin o'lsun ogoh.*

*O'zgasin qilmadim andin mazkur
Ki "Majolis" da erurlar mastur.*

*Gar alar tutti esa dashti adam,
Shukr, bu xayl erurlar hamdam. (31)*

So'nggi bo'limda shoir shohlik tuzumini qayd etish orqali hayot tizimining bardavomligi haqida xulosa chiqaradi. Uning fikricha inson uchun yashash imkoni bor ekan, uning davru davroni ham bo'lishi kerak. Shunda hayot go'zallashadi:

*Shohlar shohi sarafrozi uchun,
Rindlar shohi Abulg'ozu uchun.*

*Ul ko'han dayr gadoyi boshlig',
Ya'ni oshufta Navoiy boshlig'.*

*Masti ohangi navoe qiloli,
Beriyo barcha duoe qiloli.*

*Kim falak jomig'a to bo'lg'ay sayr,
Jom davrin tilagay zumrai dayr.*

*Umri shahliq aro boqiy bo'lsun,
Shohlar bazmida soqiy bo'lsun.*

Toki insong‘a hayot imkoni

Bo‘lg‘usi, bo‘lsun aning davroni. (32)

Soqiynoma mavzu va g‘oyasi to‘g‘risidagi xulosa shuki, unda qaysidir ma‘nodagi zichlashgan umumiylik bor. Ularda tavsifiylik ustun turadi.

2.2. Soqiynomaning badiiy xususiyatlari

Soqiynomalar kompozitsiyasining o‘zi yuksak badiiy tafakkur mahsuli sifatida baholanishi mumkin. Navoiy soqiynomasida, avval qayd etilganidek, 32 she‘r ma‘lum qonuniyatga asoslangan tizim asosida umumiy yaxlitlik kasb etadi. She‘rlar turli hajmlarda. Masalan, birinchi soqiynoma 41 baytni tashkil qilsa, o‘n oltinchisi 5 baytdangina iborat. Bunday xilma-xillikni yagona tizimga keltirishning o‘zidayoq Navoiy mahorati namoyon bo‘ladi.

Navoiy lirikasi faqat tematik doirasining kengligi, g‘oyaviy dunyosining boyligi bilangina emas, ayni zamonda, chuqur fikrlar silsilasining original ifodasini ta‘min etgan yuksak badiiy fazilatlari bilan ham diqqatga sazovordir. Alisher Navoiy arab, fors va turkiy poeziyaning boy tajribalarini o‘zlashtirib olish bilan cheklanib qolmadi, balki mavjud an‘analarning yeng ilg‘or jihatlarini yanada yuqori bosqichga ko‘tardi va yeng muhimi, Sharq she‘riyatiga xos badiiyat xazinasini poetik durdonalarning original namunalari bilan boyitdi. Navoiyning lirik she‘rlari gumanist mutafakkir g‘oyalarining genial san‘atkor mahorati bilan mutanosib tushishi va tabiiy ravishda qo‘shilib ketishining haqiqiy namunasi hisoblanadi. Binobarin, Abdurahmon Jomiy va Bobur ta‘rifi (“ko‘b va xo‘b”) har qanday mubolag‘adan xoli bo‘lgan adolatli, lekin muxtasar bahodir.

Navoiy lirikasining asosiy fazilatlaridan biri, she‘rning tub mohiyatni tashkil etgan mazmun – g‘oyaning o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lishida ko‘rinadi. Bu esa, o‘z navbatida, har bir fikr uchun unga muvofiq keladigan janri tanlash va uning hajmini ham asosiy maqsadning mukamal ifodasiga mos qili belgilashda ko‘zga tashlanadi. Navoiy g‘azallari orasida 7, 9, 11 baytli she‘rlar ko‘pchilikni tashkil qilsa ham, ularning har biri mazmun taqozosi bilan tanlangan. Jumladan, ishqiy tematika uchun kichikroq shakl, falsafiy-ijtimoiy fikrlar ifodasi uchun esa hajman kattaroq g‘azallar asos qilib olingan.

SHoir devonida muhim o‘rin tutgan qit‘alarning ko‘pchiligi ikki baytdan iborat bo‘lgani holda, mazmun taqozosi bilan g‘azal hajmiga teng (7 – 11 baytli) qit‘alar ham uchraydi.

Xullas, she‘riy shakl masalasiga Navoiy ijodiy yondashib, mazmun va poetik janrlar uchun xos umumiy me‘yor talablari asosida ish ko‘rgan.

Lirik she‘rning kompozitsiyasi masalasi ham Navoiyning novatorligi, lirika taraqqiyotidagi buyuk xizmati diqqatga sazovor. Uning “Badoeu-l-bido‘ya” debochasida o‘z g‘azallarining

muhim fazilatlaridan biri haqidagi qaydidan quyidagi jumlaning esga o'laylik: "...Ul jihatdan say' qilindikim, har mazmunda matla'e voqe' bo'lsa, aksar andoq bo'lg'aykim, maqta'gacha surat xaysiyatidan muvofiq va ma'ni jonibidan mutobiq tushgay".

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, Navoiyning har bir she'r mazmunan va shaklan mutanosib bo'lib, boshdan oxiriga qadar mantiqiy izchillikka ega bo'lgan yaxlit bir asar bo'lishi lozimligi haqidagi ajoyib mulohazasi rasmiy jihatdan g'azallar haqida bayon qilingan bo'lsa ham, mohiyat e'tibori bilan barcha lirik janrlar uchun taalluqli. Chunki shoir devonidagi qaysi bir janrga murojaat qilmang, ularda genial ijodkor estetik tamoyillarining yorqin ifodasini ko'rish mumkin.

Ikkinchi tomondan, Navoiyning chuqur ma'noga ega bo'lgan mazkur mulohazasi umumlashgan xarakterda bo'lib, ijod jarayonida u mazmun va muallifning shaxsiy uslubi taqozosiga ko'ra xilma-xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Buning ajoyib isbotini Navoiyning o'z she'rlarida, xususan, uning g'azallari misolida aniq ko'rish mumkin. Ahamiyatli tomoni shundaki, Navoiy g'azaliyotining o'ziga xos fazilatlarini, shoir novatorligining yorqin qirralari uning zamondoshlari diqqatini ham o'ziga tortgan va ular ijodiyotiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Jumladan Navoiy ijodiyotining haqiqiy muxlisi va ob'ektiv tadqiqotchisi bo'lmish Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da shoir adabiy merosiga umumiy baho bergan bo'lsa, aruz haqidagi asarida o'rni-o'rni bilan uning poetik mahorati qirralarini ta'kidlab o'tadi.

Navoiyning bir qator g'azallari lirik qahramon kechinmalari bilan aloqador voqealarning poetik tasviridan iborat. Ma'lum bir hayotiy lavha tasviri bilan bog'liq syujetli g'azallar mohiyat e'tibori bilan o'ziga xos she'riy novellalar bo'lib, Navoiy devonlarida shu tipdagi g'azallarining o'nlab namunalarini maqjud.

Navoiyning ilk devoniga kiritilgan "Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi", "Havo xush erdiyu ollimda bir qadah mayi nob" misralari bilan boshlanuvchi ana shu tipdagi g'azallari bu fazilat shoir ijodining dastlabki davrlaridayoq shakllanib yetganligidan dalolat qiladi.

Navoiy g'azallari uchun xos yaxlitlik, poetik lavha tarzidagi xususiyatlar uning peyzaj xarakteridagi she'rlarida ham o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Lekin bunday she'rlarda muayyan syujet ko'rinmaydi, balki tabiat manzarasining izchil tasviridan shoir o'z muddaosi bayoni uchun o'ziga xos fon sifatida foydalanadi va maqsadning izchilligi she'riy uslubda ham o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, Navoiy she'riyatiga xos yaxlitlik, mantiqiy izchillikni ta'minlagan omillardan yana biri har bir she'rga konkret bir fikr, detal yoki obrazning asos qilib olinishi va tasviriy imkoniyatlarning barchasi tasvir ob'ektining to'liq va izchil ifodasi uchun safarbar etilishidan iboratdir.

Maqsad – g‘oyaning konkret bo‘lishi hamda tasvirdagi qat’iy izchillik kompozitsiyaning mukammalligi va she’rdagi dinamikaning tabiiyligini ta’min etgan. Bu xususiyatning yuzaga kelishi esa har bir she’rda, tasvir ob’ektining xarakteri bilan bog‘liq holda, xilma-xil yo‘sinda ko‘rinadi (bir g‘azalda yagona predmet bilan bog‘liq xususiyatlarning izchil tasviri, boshqa birida esa voqea-hodisaning tub mohiyatini ko‘rsatish uchun bog‘liq hodisaning bayoni va hokazo).

Soqiynoma mazmunan munojotga o‘xshaydi. Lekin munojotda xohish aniq bo‘lsa-da, misollar, dalillar keltirilmaydi. Soqiynomada xohish ob’ekti ham sub’ekti ham aniq.

Soqiynomaning har bir bandi soqiyga murojaatdan boshlanadi. Ana shu murojaatda she’rning mazmun mohiyati, gap nima haqida borishi aniq bo‘ladi. Masalan, birinchi band:

Soqiyo, tut qadahi shohona,

Qatrasi la’l, vale yakdona,

misralari bilan boshlanadi. Bu soqiynomada asosiy maqsad shohni ulug‘lash va unga pand-nasihat aytishdan iborat.

UMUMIY XULOSALAR

1. Adabiy janr kategoriyasi – tarixiy hodisadir. Soqiynoma ham turkiy adabiyotda nihoyatda kam qo‘llangan janr bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, turkiy adabiyotda ularning umumiy soni o‘nga ham yetmaydi. Soqiynoma chuqur falsafiy mazmunga ega ekani bois faqat eng salohiyatli shoirlar tomonidangina yaratilgan. O‘zbek adabiyotining Navoiy davrigacha bo‘lgan tarixida bu janrda maxsus asarlar yaratilmagan. Lekin dostonlar va boshqa turli epik asarlar tarkibida lirik chekinish sifatida soqiynoma tipidagi she‘rlar yaratilgan.

2. O‘zbek adabiyotshunosligida soqiynomalar ustida birgina Yoqubjon Ishaqov tadqiqot olib borgan. U xorijlik olimlar, xususan fors adabiyoti tadqiqotchilarining fikrlariga tayanib, soqiynomani alohida janr sifatida talqin qiladi. Sharq adabiyoti tarixida ham u soqiynoma nomi bilan yuritiladi. Lekin she‘riy janrlar nazariyasiga ko‘ra, muayyan janrning falsafiy-g‘oyaviy jihatlari, mazmun maydoni, baytlari soni va qofiya tizimi aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Soqiynomalarda bunday xususiyatlar ko‘zga tashlanmaydi. Diqqat bilan kuzatilsa, soqiynomalar o‘zining falsafiy mazmunga egaligidan boshqa xususiyati bilan boshqa yirik janrlardan farqlanmaydi. Shuning uchun uning janr sifatida belgilanishini so‘nggi to‘xtam deb qabul qilib bo‘lmaydi.

3. Alisher Navoiy soqiynomasi hajman juda katta turkumni tashkil qiladi. U 32 bo‘limdan iborat bo‘lib, 458 baytdan tarkib topgan. Qofiyalanish tartibi masnaviy usulida. Adabiyotimiz tarixida ba’zi dostonlar hajman undan bir necha barobar kichik. (Bunga misol qilib Sayfi Saroyiyning “Suhayl va Guldursun” dostonini keltirish mumkin. Doston bor-yo‘g‘i 82 baytdan iborat.)

4. Navoiy soqiynomasini lirik-tavsifiy asar sifatida baholash mumkin. Unda shoirning lirik kechinmalari ifodasi barobarida Abdurahmon Jomiy, Mo‘min Mirzo kabi shaxslarga ehtirom va g‘amxo‘rlik, saroy muhitining nozik munosabatlari, ijodiy jarayonlar xususida ham fikr yuritiladi.

5. Navoiy soqiynomasi tasavvufiy xarakterga ham ega. Undagi badiiy obrazlar va detallar tasavvufiy mohiyatni aks ettiradi.

6. Navoiy soqiynomaning kompozitsion qurilishiga katta e‘tibor qaratdi. Bu masalaga u asar asosida yotgan hayotiy yoki ma‘naviy asosning – poetik materialning xarakteri bilan uzviy bog‘liq holda qaradi. Bu esa shoirning estetik printsiplari (go‘zallik va garmoniya) bilan bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Каримов И.А. Ватан равнақи учун хар биримиз масъулмиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2011.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008.
3. Адабиёт назарияси. II том. Тошкент, “Фан”, 1979.
4. Аристотел. Об искусстве поэзии. – Москва: Наука. 1957.
5. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965.
6. Бертельс Е.Э. Низами и Фuzuли. М. 1962.
7. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: «Фан», 1974.
8. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. Т. “Фан”, 1983.
9. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
10. Навоий, Алишер. Фавойиду-л-кибар. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, IV ж. – Тошкент: Ф.Фулум, 2011.
11. Навоий, Алишер. Фаройибу-с-сиғар. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, I ж. – Тошкент: Ф.Фулум, 2011.
12. Навоий, Алишер. Мажолису-н-нафоис. Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, IX ж. – Тошкент: Ф.Фулум, 2011.
13. Навоий, Алишер. Хамса. – Т.: Фанлар Академияси нашриёти, 1960.
14. Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968.
15. Рипка, Ян. История персидской и таджикской литературы. М. 1970. С.
16. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.
17. Султон, Иззат. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
18. Султон, Иззат. Навоийнинг қалб дафтари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1963.
19. Храпченко М.Б. Художественное творчество. Действительность, человек. М., 1976.
20. Шайхзода М. Асарлар. 6 томлик. IV т. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972.
21. Шарқ мумтоз поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
22. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик, II том. Тошкент: “Фан”, 1977.
23. Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи. – Т.: «Фан», 1963.
24. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. Т. “Фан”, 1960.
25. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Т.: «Фан», 1970.
26. [www. o'zbek adabiyoti. uz](http://www.o'zbekadabiyoti.uz).
27. [www. ziyo – uz. com](http://www.ziyo-uz.com).

